



Dilafruz ABDURASHIDOVA,
The Department of foreign languages and literature
Tashkent University of Applied Sciences
E-mail: dilafruzJalil@gmail.com

Reviewer: Oriental University, department of west languages, senior teacher, Rasulova Munajat Akmaljanovna

GENRE IN ACADEMIC PROSE: WHAT MAKES ACADEMIC PROSE DIFFERENT FROM OTHER VARIETIES?

Annotation

This article explores the distinctive features of academic prose compared to other genres. It delves into the defining characteristics that set academic writing apart, emphasizing its formal structure, objective tone, and reliance on evidence-based arguments. By examining the conventions and expectations of academic prose, the article sheds light on why it is a crucial component of scholarly communication and discourse. Through analyzing examples and discussing key differences, readers can gain insight into the unique qualities that distinguish academic prose from other forms of writing. This exploration contributes to a deeper understanding of the role and significance of genre in scholarly endeavors.

Key words: academic prose, academic conviction, academic performance, academic excellence, academic style, non-academic style, academic paper, non-native speakers, native speakers.

ЖАНР В АКАДЕМИЧЕСКОЙ ПРОЗЕ: ЧТО ОТЛИЧАЕТ АКАДЕМИЧЕСКУЮ ПРОЗУ ОТ ДРУГИХ РАЗНОВИДНОСТЕЙ?

Аннотация

Эта статья исследует характерные особенности академической прозы по сравнению с другими жанрами. Она вводит определение черт, которые отличают академическое письмо, подчеркивая его формальную структуру, объективный тон и основанную на доказательствах аргументацию. Исследуя общепринятые правила и ожидания академической прозы, статья проясняет, почему она является важным компонентом научного общения и дискурса. Анализируя примеры и обсуждая основные различия, читатели получают понимание уникальных качеств, которые отличают академическую прозу от других форм письма. Это исследование способствует более глубокому пониманию роли и значения жанра в научной деятельности.

Ключевые слова: академическая проза, академическое убеждение, академическая успеваемость, академическое превосходство, академический стиль, неакадемический стиль, академическая статья, иноязычный говорящий, носитель языка.

AKADEMIK NASR JANRI: AKADEMIK NASR BOSHQA JANRLARDAN QANDAY FARQLANADI?

Annotation

Ushbu maqolada akademik nasrning boshqa janrlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi. Unda akademik uslubning xususiyatlari, uning rasmiy tuzilishini, xolis ohangi va dalilga asoslangan holda muzokaralarni olib borishini tubdan o'rganadi. Maqola akademik nasrning talablari va istiqboli tadqiq etish orqali ilmiy muloqot uslubi va nutqning muhim xususiyatlarining tarkibiy qismlariga oydinlik kiritadi. Misollarni tahlil qilish va asosiy farqlarni borasida muzokaralar olib boirish orqali o'quvchilar akademik nasrni boshqa nasr shakllaridan ajratib turadigan noyob taraflari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu tadqiqot akademik janrning ilmiy ishlardagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: akademik nasr, akademik uslub talablariga qattiy amal qilish, akademik ko'rsatkich, akademik mukammallik, akademik uslub, noakademik uslub, akademik nasriy ish, ingliz-tili ona-tilisi bo'lmagan gapiruvchilar, ingliz-tilida ona-tili sifatida gapiruvchilar.

Introduction. As Bourdieu and Passeron (1994) put emphasis on the matter that both native and non-native speakers have identical challenges to meet the requirements of academic language, which is so-called no-one's mother's tongue, either mastering the English language or being a native speaker can guarantee no-one with adequate knowledge how to write a paper properly in academic prose. Each stage of education and professional progress require various types of writing demanding adherence to stringent language structures and skills, therefore, recognition where tasks, skills and situations diverge or where they stay close to each other are vital for successful academic performance of writers. In this sense, having familiar with what academic prose itself is, how many genres exists in it, and what features makes it different from other writing styles and of course why a writer need acquire it can be prioritised to get aware. In this paper, all those concerns will be explored through analysis of relevant

literatures that illustrate clear model for each genre of academic prose and its distinguishable features from other ones. The review will draw research synthesised from exact sources and provide a summary and factual analysis related to academic writing. These findings will provide explanatory basis to the factual analysis and contribute further in-depth comprehension of content provided that allows acquisition of every concern and master them.

Literature review. Academic writing style is considered as a style that is mainly utilised among members of academic community, namely students, professors, and researchers, all the scholarly audience in academia. An academic paper feasibly shows tendency of heavy dependence on textual and empirical evidence, as it goals to fill in the reader on non-biased data and support every claim with several solid proofs with the help of citations and a list of references. An adherence to rigid structure and layout is

noticed in all kinds of academic genres, while it is not a single formula and homogeneous aspect, as Bazerman (2014) mentioned that "Rather it varies from discipline to discipline and from educational level to level. ... Even within the same field, genres may vary substantially on these same dimensions; for example, a paper of literary criticism differs greatly from a paper in literary history. Further the exercises asked of a primary grade of student differs greatly from those of a university student, and the professional scholar's task differs again" (p. 2).

While writing an academic paper, various tests and different structures are used to from a new one and those structures show to which genre the paper mostly suits. According to Professionalwritingbay (n.d.) there are several genres in academic prose: abstracts, essays, posters, case-studies, reports, review of literature, research papers, dissertations, theses, and grant proposals. Here Sheldon argues that abstracts and literature reviews are considered as a genre element, not a wholly independent single one, because of being mostly an integral part of a paper and rarely stand alone. Although an exact structure is applied and following certain rules is fundamental, there are several general aspects that they must exhibit and make them as a single unit. Firstly, an academic paper is required to keep the semantic structure, allowing to encompass the topics and the foci. Secondly, the formal appearance of paper that is reached by adhering a structure. At the next steps, rhetorical function, structure of implication and frame can be shown.

Discussion. Looking at each genre in-detail, one of the most common ones might be an abstract, which ensures a summary of a text, pointing out the key points. Also, an abstract possibly serves as a gateway catching reader's attention at the first sight, as a conference organiser for rejection or acceptance of paper, and as a means of trigger that can both have influence on decision of journals and guarantee to get published. A brief abstract should have the feature that not only informs the reader about entailed content and arguments but also, persuade him to go ahead till the end of the literature (Professionalwritingbay, n.d.). Second most important genre is an essay due to be as effective assessment tool at university and college. It can fall into 10 types: comparison and contrast, cause and effect, problem-solution, classification, argument, discussion, definition, process, exemplification, and description, so that it varies in rationale and length. To identify which type of essay is expected to write, it is necessary to make sure that the essay question is realized clearly.

At the same time, a report has mainly 9: namely business, laboratory, research, case study, progress, project, design, field and technical (Sheldon, 2019). Presentation of factual analysis of a particular project or definition of a certain procedure and analysis of presented issues are mostly encompassed in a report. A report can be presented in a distinctive format such as: Table of contents, Introduction, Methods, Results, Discussions, Conclusion, Appendices, as well. All parts follow one after another keeping the linear order. Another Equally important genre in academic prose is a case study, in-detail research of a facet of a real-life problem from numerous viewpoints, mostly aims to offer a solution. In a case study, a reader is aimed to guide through various stages of investigation: description, evaluation, and solution of a problem. To explore the relevant data of sources for solution wide range of approaches exist to be used including: interviews, observation, questionnaires, library research, diaries, current documents and historical documents. Mainly case study could be divided into comparative, linear analysis, theory-building, un-sequenced and suspense reports. Two of the most challenging and time-consuming ones are exactly theses and dissertations. Both academic writing genre are

common among postgraduates and graduates. For admission into academic community those lengthy literatures can employ as a justification, simultaneously a requirement of qualification. Subjects and college instructions differentiate theses from dissertations, but they are tools to distinguish. A dissertation is a single and whole genre, while a thesis is created in another genre as a crucial part of it. A postgraduate or graduate student could be asked to write a thesis for graduation, but a doctoral must work on a dissertation for requirement of qualification (Professionalwritingbay, n.d.). One of the limitations all the explanation is that lack of examples that allow to have the pictures of each genre. By providing appropriate samples it might have been more informative that Sheldon (2019) managed to do properly and precisely that in his well-organised book every genre is mentioned clearly.

Formal, complex, objective, explicit, hedged, responsible, well-organised, planned, precise and accurate writing is an academic writing style according to the description of website UEFAP. Knowing what features do not belong to it can also help to comprehend what they are. Yes, a paper is free of citations or a list of references, possibly aims to inform mass public based on somehow biased facts, is written straightforward style to ease reading, ensures entertainment, and can be persuasive. It can be concluded, then, a paper that puts emphasis on informing scholarly audience through non-biased facts and solid evidence scaffolded with citations and a list of references is an academic one. In a 2007 study, David suggested many tips for academic convention - an amalgamated list, including: avoidance of abstraction and run-on expressions such as "and so forth, etc." , free of engagement with reader, especially direct questions, placing adverbs among verbs to show high level of grammar accuracy, using phrasal verbs less, excluding any collocations, slangs and niches and of course avoiding any personal pronouns. Unfortunately, a strict adherence to academic convention plausibly makes paper boring to read. In this sense, intentional impairment of that frame might bring about a far more prospective outcome. In an interesting 2017 study, Dominator found that violation of some academic writing rules could be an advantageous, yet. Because presence of non-academic writing style in academic paper might ensure a paper to be found fun and interesting to read, to reach wider readership. Applications of some entertaining techniques such as attention catchy title, emotion triggers, personal point of view, amusing tone and sense of humor and engaging the reader by directly addressing and giving questions in further steps captive the reader and lead to wide readership. Thus, now it is time that educational institutions, generally academic community, considered inclusion of non-academic style resulting in easiness of reading and granted wider readership of research. The mixture of little deviant from a prescribed writing convention and non-academic writing style features would usher in a breakthrough, which could make a way for new crucial and relevant theories in life to be prevented in a far more straightforward and appealing mode. As Hyland (1994) argues that fortunately, widely recognised interaction between writer and reader at the expense of a popular belief of a series of in-demand impersonal statements of facts is a must to consider, because the expected audience, anticipation of their background knowledge and their reactions to the texts are requirements, all writers need to be aware (Cited in James, 2022).

Conclusion. Taking every key points consideration and looking at them deeply highlight that gaining awareness of academic convention, knowing what happens at every stage of education, especially in a university, what academic writing is not actually that mostly leads to comprehension of what it is, and genre and their structure is a must-be knowledge need to

be acquired. Some suggestions raised by Dominator could generate new area of prose, so further research on them will possibly pay off. Because of a rigid structure of language, tone and mode, research could reach a wide range of audience

rarely. It might not, then, be taken necessary reader who is supposed to review it, feasibly develop new arguments on it. There might be also several unnoticed facets of academic writing need to be further researched to better understand.

REFERENCE

1. Academic writing: Features of academic writing. (n.d.). UEFAP Retrieved from: <http://www.uefap.com>
2. Bourdieu, P., Passeron, J-C., and Saint Martin, M. (1994). Academic discourse: Linguistic misunderstanding and professorial power. Polity
3. Charles, B. (2012). Academic Writing, Genre, and Indexicality: Evidence, Intertext, and Theory. Research Gate
4. David, R. E. (2007). Important Features of Academic Research Papers in English. J Nurs Studies N C N J 6(1). pp.61-68.
5. Dominador, L. P. (2017). Feature Style for Academic and Scholarly Writing. Academic Journal of Interdisciplinary Studies, 6(2), 35-41. Doi: 10.1515/ajis-2017-0004
6. Genres of Academic Writing: Overview of Genres of Academic Writing. (n.d.). Professionalwritingbay Retrieved from: <https://professionalwritingbay.com/>
7. Hasa. (2019). Differences between academic writing and non-academic writing, Compare the Differences between similar terms. DifferencesBetween.com
8. Retrieved from: <https://www.differencebetween.com/>
9. James, Th. (2022). Discovering Academic English, (1st ed.).
10. Sheldon, S. (2019). Academic Writing Genres: Essays, Reports and Other Genres. Evident Press



Dilobar ABDUXALILOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:dildoraabdخالilova@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

STUDY OF GOETHE-WORK IN UZBEKISTAN

Annotation

Today, literary relations, mutual relations between peoples and nations are developing day by day. Of course, such literary relations cannot be imagined without translations between nations and peoples. Western literature, in turn, did not leave its literary influence on Eastern literature. In particular, the best works of Goethe, Schiller, Brecht, and Lissing, the most famous representatives of German literature, have been translated many times into many languages, including Uzbek. In particular, the fact that the interest in studying Y.V. Goethe's work and his poems in world literature is increasing day by day, and the fact that new translations of his works and poems are being published shows that researches should be conducted on this topic. In this direction, it is important to analyze the achievements and shortcomings of the translations, highlight the importance of the achieved results, make suggestions for eliminating the mistakes made, and give various recommendations in this regard. Through this study, the state of study of Goethe's work in Uzbekistan will be investigated.

Key words: Goethe, poetry, literary studies, translation studies, translation, synonym, adequacy, equivalence.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ГЁТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Сегодня литературные связи, взаимоотношения между народами и нациями развиваются с каждым днем. Конечно, подобные литературные связи невозможно представить без переводов между нациями и народами. Западная литература, в свою очередь, не оставила своего литературного влияния на литературу восточную. В частности, лучшие произведения Гёте, Шиллера, Брехта и Лиссинга — самых известных представителей немецкой литературы — неоднократно переводились на многие языки, в том числе на узбекский. В частности, тот факт, что интерес к изучению творчества Гёте и его стихов в мировой литературе возрастает с каждым днем, а также то, что публикуются новые переводы его произведений и стихотворений, показывает, что исследования по этой теме необходимо проводить. В этом направлении важно проанализировать достижения и недостатки переводов, подчеркнуть важность достигнутых результатов, внести предложения по устранению допущенных ошибок и дать различные рекомендации по этому поводу. Благодаря этому исследованию будет изучено состояние изучения творчества Гёте в Узбекистане.

Ключевые слова: Гёте, поэзия, литературоведение, переводоведение, перевод, синоним, адекватность, эквивалентность.

GYOTE IJODINING O'ZBEKISTONDA O'RGANILISHI

Annotatsiya

Bugungi kunda adabiy aloqalar, xalqlar va millatlarning o'zaro munosabatlari kundan-kunga rivojlanmoqda. Bunday adabiy aloqalarni albatta millatlar va xalqlar o'rtasidagi tarjimalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. G'arb adabiyoti ham o'z navbatida sharq adabiyotiga o'zining adabiy tasirini o'tkazmasdan qolmagan. Jumladan, nemis adabiyotining eng mashhur namoyondalari bo'lmish Gyote, Shiller, Brext, Lissinglarning eng yaxshi asarlari ko'pgina tillarga, shu jumladan o'zbek tiliga ham ko'p marotaba tarjima qilingan. Jumladan, Y.V.Gyotening ijodini va uning she'rlarini dunyo adabiyotshunosligida o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib borayotganligi va uning asarlari va she'rlarini yangi tarjimalari e'lon qilinayotganligi mazkur mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borilishi kerakligini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda qilinayotgan tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, erishilgan natijalarning ahamiyatini yoritish hamda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish va bu borada turli xil tavsiyalarni keltirib o'tish ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot orqali aynan Gyotening ijodini O'zbekistonda o'rganilish holati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Gyote, she'riyat, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, tarjima, sinonim, adekvatlik, ekvivalentlik.

Kirish. Badiiy asarning qiymati nafaqat uning asliyat tilida, balki tarjima tilida ham qanchalik ta'sirchanligi bilan ham belgilanadi. Milliy adabiyotning boyishini o'zaro adabiy aloqalar va tarjimalarsiz tasavvur qilish imkonsiz. Buyuk so'z ustasi, prozada qanday bo'lsa, poeziyada ham xuddi shunday ijod qilgan Gyote o'zining boshqa asarlari orqali ham o'zbek kitobxonlari oilasiga kirib kela boshlaydi. Y.V.Gyote ijodi o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab Cho'lpon, Oybek, Shayxzoda va boshqa turli yozuvchi va shoirlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Adibning "Faust" tragediyasi tanikli ijodkor Erkin Voxidov tomonidan (rus tili orqali) 1972-75-yillar, 2007-yil esa Posho Ali Usmon tomonidan bevosita, "G'arbu sharq devoni" Sadridin Salim

Buxoriy tomonidan 1985-90-yillar, 1975-yilda Gyotening „Yosh Verterning iztiroblari“ asari bilvosita emas, balki bevosita nemis tilidan Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilinadi va G'ofur G'ulom nashriyotida chop etiladi. Ushbu asar orqali Gyote ijodining badiiyligi va mashxurligi ko'p marotaba taqin qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda esa shoir asallarini tarjima qilishga bo'lgan ilk urinishlar Maqsud Shayxzoda tomonidan amalga oshiriladi. O'zbek kitobxonlarni "G'arbu sharq devoni" romanini o'qiy olganliklari uchun Maqsud Shayxzodadan minnatdor bo'lishlari kerak. Bu asarni tarjima qilishga bir qancha urinishlar bo'lib o'tgan. Lekin

ulardan eng adekvat tarjima deb Erkin Vohidovni tarjimasi desak xato bo'lmaydi.

Gyotening ijod xazinasini bitmas tunganmas ekanini alohida uqitirish o'rinlidir. Shu bois buyuk nemis shoirining asarlarini o'zbek kitobxonlariga to'la yetkazish borasida adiblarimiz, adabiyotshunoslarimiz, tarjimonlar oldida hali ulkan ishlar turibdi [8; 198].

Gyote ijodi bilan tanishish va uning rivojlanish bosqichi mamlakatimizning xalqaro adabiy aloqalarning rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda Gyotening birinchi she'ri XX asrning 30-yillarida tarjima qilinib, nashr etilgan bo'lsa ham, ammo uning tarjimalari faqatgina 50-yillarda paydo bo'la boshladi. O'zbek kitobxonlari Gyote ijodi bilan 1957 yildan boshlab tanishishdi. Ushbu yilda buyuk shoir o'limining 125 yilligi munosabati bilan respublikaning "O'zbekiston madaniyati" gazetasida buyuk o'zbek shoiri va ajoyib tarjimoni Maqsd Shayxzodaning "Y.V.Gyote" nomli maqolasi nashr etildi. U o'z maqolasi orqali Gyote ijodining dolzarbligi va mazmun-mohiyatini ta'kidladi. Bu maqolada ilk bor Gyotening "Traum" she'ri Shukrullo tomonidan tarjima qilinadi va o'zbek tilida "Umid" nomi ostida chop ettiriladi. Nemis tilidagi "Traum" so'zi omonim so'z bo'lib, o'zbek tilida ikki xil ma'no anglatadi:

1.umid

2.tush.

She'ning mazmunidan ko'rinib turibdiki, asliyat va tarjima tilidagi ma'nolari bir-biriga to'g'ri kelgan. Bu she'rda nafasot, tirishqoqlik hamda kelajakdagi hayotga umid va iymon o'z ifodasini topadi.

Ishonaman! Ro'yobga chiqar

Taskinlaring ketmay behuda

Umid bilan ekilgan tayoq

Mehnat, chidam natijasida

Bir kun berar meyvayu yaproq

Sezgir shoir va tarjimon Maqsd Shayxzoda o'zining ushbu maqolasi orqali, shoirning hayot va ijod yo'llariga tavsif beradi hamda "Gerz von Berlingen" dramasi, "Prometey" fojiasini va "Yosh Verterning iztiroblari" sentimental romanlarini mohiyati batafsil yoritib beradi [5; 38].

„Yosh Verterning iztiroblari“ romanining o'zbek tilidagi tarjimasi Gyote ijodining o'zbek adabiyotida o'rganilishida yangi sahifa ochdi. Asar badiiy va adabiy kechalarda iliq kutib olindi. Sh.Karimov, U Satimov va M.Abduraxmonovlarning ushbu asar haqida ilmiy maqolalari paydo bo'ldi.

U.Sotimov o'zining „Ilk tarjima-ilk tajriba“ maqolasida bevosta tarjimaning bilvosita tarjimadan ustunlik tomonlarini ta'kidlab o'tadi. Yozuvchi, aniq misollar bilan tarjimaning muvafaqqiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Mahoratli tarjimon quyidagilarni ham eslatib o'tadi: "Tarjimada hamohanglikni, originallikni, ruhiy va hissiy holatni aks ettirish uchun tarjimon quvonch va baxt, qayg'u, o'yanchlik, nafrat va yurak og'rig'i kabi so'z, so'zбирikmalari, ironiyalar va allegoriyarni izlaydi." Tarjimon romanni o'zbek tilida katta mahorat va did bilan tarjima qiladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, tarjimada hech qanaqa ortiqcha qo'shib yuborishlar ham olib tashlashlar ham uchramagan. Muqobil tarjima – atamasi uchun aynan mos keladigan tarjima bo'lgan.

1974- yilda "Guliston" jurnalining 8- sonida tarjimon – olim G'aybullay As-Salom o'zining "Hofiz va Gyote" nomli maqolasini chop ettirdi. Bu maqola orqali u o'zbek kitobxoniga Gyotening ochilmagan qirralarini ochib berdi. Ushbu maqolada Gyote va Xofiz Shirinning ijodidagi aloqalarni yoritib o'tgan. Gyote xuddi shunday aloqalarini boshqa xalq adabiyoti va san'ati bilan ham olib borgan. Bu haqida professor G.Salomov shunday deb yozadi: Ajoyib faylasuf Gyote, hayratlanarli nemis va fors adabiyoti, moddiy va ma'naviy hayoti, hattoki fors va olmon xalqlari

tushunchasi nafaqat ikki turli xil millat, ikki adabiyot yoki umuman sharq va G'arb adabiyoti haqida gapiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Agar Gyote sharqqa hayolan sayohat qiladigan bo'lsa, yuqorida aytilganidek, unga sharq xalqlarining yod madaniyatini, urf-odatlarini, xalqning ruhiyatini tushunishida yordam bergan Xofiz Sheroziyni o'ziga ustoz qilgan bo'lsa, Gyotening she'riy olamiga nemis tilini bilmaydigan o'quvchi shoir va tarjimon mahorati orqali kirib keladi. Aynan tarjimonning o'zi yo'lbo'shchiga aylanadi, ko'p millatli xalqlarni jahon madaniyati xazinasiga oshno etadi, yangi dunyoga yo'l ochib beradi hamda "boshqa olamga eshik" ochishga yordam beradi. (A.Feodorov)

Gyote o'z ijodkorlik faoliyati o'zining eng mashhur asari "Faust" orqali namoyon etadi. Ushbu asarning eng birinchi versiyasi Bo'ron va tazyiq davrida yaratilgan bo'lib, Gyotening hayot yillarida nashr ettirilgan. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng uning qo'lyozma nusxalari topiladi.

Faust insonning doimo ezgulik sari intilishi, baxt va muhabbat haqidagi yorqin orzulari haqidagi chuqur falsafiy ruhda yozilgan asar. Gyote ijodining eng mashhur namunasi hisoblanadi.

Faust tragediyasi rus tiliga ko'p marotaba tarjima qilingan. 1988 yilda Faust tragediyaning birinchi qismining birinchi tarjimasi shoir Huber tomondan tarjima qilinib, nashr ettiriladi. N.Vilmonte, I.Volkov, V.Gayman, N.Samarin tomonidan qilingan tarjimalar buyuk shoir merosining tadqiq etilishiga bo'lgan katta qiziqish va e'tiborni ko'rsatib beradi. Bundan tashqari ushbu tarjimalar jahon adabiyotining me'rosiga ham aylandi.

1975 yilda o'zbek kitobxonlari "Yosh Verterning iztiroblari" romanini o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Muallif orginal va tarjima qismlari haqida ma'lumot olishdan oldin faqatgina ikki yoki uchta so'zni bilar edi xolos. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak "der Himmel" und "die Erde" so'zlari o'zbek tilidagi "osmon" va "yer" so'zlariga ekvivalent hisoblanadi. Nemis tilidagi "der Himmel" und "die Erde" so'zlarini boshqacha tarjima qilib ham bo'lmaydi. Bunday taxminlar bilan Yakubov deyarli hamma joyda o'z xulosasini yakunlaydi. Ish jarayonida ko'p hollarda nemis tili va o'zbek tilidagi farqlar haqida gapiradi. Lekin ushbu tafovutlar uchun yechim hech qayerda ochib berilmaydi. Masalan: o'zbek tilida rod kategoriyasi mavjud emas, lekin ushbu kategoriya nemis va rus tillarida mavjud. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi so'zlarning joylashishi orginallik ruhiyati berilishini chetlab o'tmaydi. Bundan tashqari nemis tilidagi artikel sistemasi o'zbek tilida mavjud emas. Ushbu tafovut ham tarjima bir qancha qiyinchiliklar olib keladi. Ayniqsa noaniq artikel qo'llash jarayonida bir qancha qiyinchilik va muammolar olib keladi. "da dir es wohl war wie einem Fisch imWasser" o'zbek tilida esa „xuddi suvdagi baliqdek erkin yashardim“. Nemis tilidagi „der Fisch“ und „das Wasser“ so'zlari mujskoy va sredniy rodga berilgan bo'lsa, rus tilida bu so'zlar jenskiy rodga ishlatiladi. Ko'rib turganimizdek, yozuvchining G'oyasi berilgan misollar orqali mustahkamlangan. Shuning uchun ham, frazeologik birlik hisoblangan „wie einem Fisch im Wasser“ birligi so'zma-so'z mos kelmaydi. Tarjima esa , orginal matnga yaqin turgan va unda ushbu frazeologik birlikning o'zbek tilidagi to'liq ekvivalenti berilgan: „xuddi suvdagi baliqdek“.

Tahlil va natijalar. Gyotening qanchadan qancha she'rlari va asarlari nemis tilidan bilvosita va bevosta tarjima uslubida ona tilimizga tarjima qilingan. Uning umri davomida yozilgan eng mashhur asari Faust hisoblanadi. Ushbu asar qanchadan-qancha chet tillariga tarjima qilinib o'sha millatlarning ham badiiy xazinasini boyishiga o'z hissasini qo'shgan. Xususan fransuz tiliga Faust asari 27 marotaba tarjima qilingan. Uning o'zbek tiliga bilvosita tarjimasi Erkin Vohidov tomonidan bevosta tarjimasi esa Poshali Usmon

tomonidan tarjima qilingan. Ikkala tarjimani solishtirganimizda Poshali Usmon tomonidan qilingan tarjima adekvat tarjima hisoblanadi. Chunki Erkin Vohidovning rus tili orqali qilingan tarjimasi Gyote ichki olamini yoritib berishga xalaqit bergan.

Omonshunos va tarjimashunos 300 dan ortiq tarjimalar muallifi X.Raximov o'zining Rus tarjimoni Boris Pasternak aslyat matnidagi Nacht (tun) quyidagicha tarjima qilgan:

„Habe nun ach! Philosophie,
Juristerei und Medizin,
leider auch Theologie
durchaus studiert
mit heißem Bemühen.
Da stehe ich nun, ich armer Tor,
und bin so klug als wie zuvor“.

Bunday tarjima qilgan:
Я богословьем овладел,
Над философией корпел,
Юриспруденцию долбил
И медицину изучил.
Однакоя при этом всем
Был и остался дураком.

O'zbek tilidagi tarjimada esa sevimli shoirimiz Erkin Vohidov aynan shu ruscha variantini tanlab, uni quyidagicha o'g'irgan.

Ilohiyot bilan band bo'ldim,
Faylasufi xirarmand bo'ldim.
O'rgandim ilmi huquq, ilmi tabobat,
Va amin bo'ldimki faqat,
faqat menga bir narsa ayon,
Nodon edim, nodonmn hamon.

Tarjimani ruscha varianti bilan qiyoslasak, mutarjima nafaqat aslyimonand, balki ruscha aslidan haam go'zalroq bajargan. Biroq olmoncha (ya'ni Gyote) bilan qiyoslaganda o'zbek tarjimoni ham rus tarjimonining xatosini takrorlashga majbur bo'lgan. Natijada ruscha va o'zbekchada komillikka intilib, o'sha zamon fanlarini qaynoq ishtiyok bilan o'rgangan olim va mutafakkir inson obrazi buzilib, nodon odamga aylanib qolgan. Olmoncha matnda birinchi o'rinda falsafa aytilsa, ruscha va o'zbekcha variantida birinchi o'rinda ilohiyot kelgan. Aslyat tili mutaxasisi Poshali Usmon oxirgi qatordagi bu olmoncha so'zni "men hamon g'o'r telba bechora" deb aslyatga to'g'ri tarjima qilgan[9; 6]

"G'arb-u Sharq devoni" esa Maqsud Shayxzoda tomonidan bilvosita, Sadriddin Salimov tomonidan bevosita nemis tilidan 'zbek tiliga tarjima qilingan. Sadriddin Salimov shu haqida quyidagi maqolalarni ham yozadi. Bular "G'arbnig sharqqa hijrati", "G'azalnavis nemis shoirlari", "Gyote va Hofiz", "Gyote va tasaffus" singari maqolalaridir. Ushbu maqolalarni o'qigan kitobxonda Gyote shaxsiga nisbatan tasavvur yanada tiniqlashgan va oshgan.

"Faust" tarjimasi milliy tarjima nazariyasi va amaliyotida yangi sahifa ochdi. Natijada keyingi davrda tarjimashunos olim Poshali Usmon o'g'li „Faust“ tragediyasining ozarbayjon, qozoq va rus tillaridagi tarjimalarning qiyosiy o'rganish asosida ilk bor asar birinchi qismining aslyatdan o'zbek tiliga filologik tarjimasini yaratdi.

Gyotening bu asari va Erkin Vohidovning tarjimasi haqida yozuvchi H.G'ulom, adabiyotshunoslar V.Zohidov, I.G'afurov, K.Azizov, Sh.Karimov, tarjimashunoslar Poshali Usmon o'g'li, A.Allaberganova, S.Yoqubov, R.Abdullayev va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarini yaratishdi. Lekin, shunga qaramay ayrim taqrizlarni istisno qilganda, necha o'n yillar mobaynida ushbu shox asarlar tarjimasi munosib darajada keng muhokama etilmay kelayotganligini ochiq aytishga to'g'ri keladi.[7; 46]

Gyote o'zining bitmas-tuganmas xazinasi bilan nafaqat nemis adabiyotida, balki dunyo adabiyotida ham o'zidan yorqin iz qoldirdi. Ana shunday badiiy xazinani o'rganish borasida o'zbek adiblari, adabiyotshunoslarimiz va tarjimonlarimiz oldida hali ham ulkan ishlar turibdi.

Xulosa va takliflar. Buyuk nemis shoiri Gyote ijodi shu jumladan, uning shox asari hisoblangan „Faust“ tragediyasi, „Yosh Verterning iztiroblari“, „G'arbu Sharq devoni“, „Hamroz dillar“, „Rim elegiyalari“, „Nabotot evrilishi“, „Torkvatto Tasso“, „Ranglar haqidagi ta'limot“, „Sehrli sibizg'a“ kabi asarlari v auch mingdan ortiq she'rlari orqali adabiyot ixlosmandlari qalbiga yo'l topa oldi. Gyotening „Faust“ asari kabi buyuk asar jahon adabiyotida hali yaratilmagan. Chunki Gyote "Faust" asariga o'zining butun umrini bag'ishlagan. 1772 yilda yozila boshlangan dramatik doston1831 yilda Gyote o'limidan 6 oy avval yozib tugatilgan. Faust asarining bevosita Poshali Usmon tomonidan tarjimasidagi adekvatlik Erkin Vohidov tomonidan qilingan bilvosita tarjimasidagiga qaraganda ko'proq ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

- Allayorova R.R. (2008) Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Urganch.
- Dolimov Z. (2009) Tarjima san`ati va muammolari. Toshkent: O'qituvchi.
- Fedorov, A.V., (1968) Osnovi obshey teorii perevoda. - M.: Visshaya shkola.
- Jabborov S.D. (1984) G'arbu-sharq devoni. DcS diss. in phil. scien. Tashkent.
- Raximov X. (2018) Tarjimachilik qay ahvolda. Zamonaviy leksikografiya, frazeografiya va tarjimashunoslik masalalari. Andijon.
- Raximov X. (2023) G'arbnig Hirotida tugilgan shoir. Hurriyat gazetasi. Iyun soni. Toshkent.
- Saidov A. (2018) O'zbekimning Erkin o'zbeki. "Akademiknashr", Toshkent.
- Saidov, A., (2020) Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
- Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan. Toshkent, O'qituvchi. 1965.



UDK:809.1(045)

Dildora ALIQULOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail:aliqulovadildora92@gmail.com

Turon universiteti, f.f.f.d P.Qurbonov taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF DOMESTIC PROBLEMS IN THE CREATIONS OF A. KADIRII AND F. DUCHENE

Annotation

This article talks about the uniqueness of the domestic theme in the novels of A. Qadiri, the founder of Uzbek novelism, O'tgan kunlar and "Tamilla" by the French writer F. Duchene. The character outlook of the heroes of the work, their experiences on different paths of life are discussed

Key words: Image, hero, composition, style typology, naturalistic image, philosophical-psychological.

ХАРАКТЕРИСТИКА БЫТОВЫХ ПРОБЛЕМ В ТВОРЧЕСТВАХ А. КАДИРИИ И Ф. ДЮШЕНА

Аннотация

В данной статье говорится об своеобразии бытовой темы в романах основоположника узбекской новеллы А. Кадири, «Отган Кунлар» и «Тамилла» французского писателя Ф. Дюшена. Обсуждается мировоззрение героев произведения, их переживания на разных жизненных путях

Ключевые слова: Образ, герой, композиция, стилевая типология, натуралистический образ, философско-психологический.

A.QODIRIY VA F.DYUSHEN IJODIDA MAISHIY MUAMMOLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek romonchiligining asoschisi A.Qodiriyning O'tgan kunlar hamda Fransuz yozuvchisi F.Dyushenning "Tamilla" romanlarida maishiy mavzuning o'ziga xosligi haqida so'z boradi. Asar qahramonlarining harakteri dunyoqarashi, hayot yo'llarining turli xil so'qmoqlaridagi kechinmalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlari: Obraz, qahramon, kompozitsiya, uslub tipologiyasi, naturalistik tasvir, falsafiy-psixologik.

Kirish. Shunday asarlar bo'ladiki, undagi qahramonlar sizning yaqin insoningizdek bo'ladi. U dard chiksa kuyunasiz, xursand bo'lsa suyunasiz va u bilan ma'lum muddat birga yashaysiz. Shunday asarlardan biri bu Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani desak mubolag'a bo'lmaydi. Kitobxon "O'tgan kunlar" romanini esga olganda bevosita Kumushbibi deb eslanadi. Bu asar hanzu o'z muxlisini yo'qotgan emas, ilk kunlardanoq xalqning yuragiga kirib borgan, millatimiz qadriyatini dunyo qadar ko'tara olgan asar bo'lib kerib keldi deya olamiz.

Ushbu maqolamizda qiyosiy tahlilga tortmoqchi bo'lgan yana bitta shunday asarlardan biri o'z davrida ma'lum va mashhur bo'la olgan o'zining avditoriyasiga ega bo'lgan Fransuz yozuvchisi Ferdinand Dyushenning "Tamilla" romanidir. Tamilla romani ham 1926 yil "O'tgan kunlar" romani bilan bir vaqtda yozilgan bo'lib, qo'lyozma xolidayoq 1921 yil Jazoiring ilk bora e'lon qilingan bosh mukofati Gran Pri siga sazovor bo'lgan. [3:43] Bundan ko'rinib turibdiki asar realistik tasvirlangan ya'ni Jazoirda yashayotgan arab xalqining turmush tarzi arab ayollarining qismati tasvirlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Asrimiz boshlarida ma'rifat nuri bilan ijtimoiy hayotni yangilash niyatida maydonga chiqqan jadid bobolarimiz ham ayollar haq-huquqi masalasini g'oyat dolzarb muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo'ygan edilar. Bexbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi harakat darg'alarining publisistik chiqishlari, turli badiiy asarlari, amaliy faoliyatlarida ko'pdir. Balki ana shu umumiyat tufaylimi 20-yillarda Tamilla romani o'zbekchaga o'girilib chop etilgan va kitobxonlar o'rtasida nihoyatda shuhrat qozongan bo'lsa ajab emas. Bu ishning boshida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Zarif Bashariy kabi jadid ziyolilari turgani ham yuqoridagi fikrimizni isbot etadi. Tamilla romani 20-yillarnig ikkinchi yarmida Zarif Bashariy

tomonidan tarjima qilingan, adib Abdulla Qodiriy tomonidan tahrir etilgan yetuk asarlardan biridir. Fikrimizni dalili sifatida o'sha yillarda aynan ushbu asar ta'sirida o'zbek oilalarida qizlarga Tamilla ismini qo'yish urf bo'lganligini aytib o'tishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Qodiriy asar qahramoni qilib hokim sinf vakillarini oladi, Dyushen esa arab xotin-qizlarini yarata turib, qahramon tanlashning ijtimoiy mohiyatiga Qodiriyga nisbatan o'zgacha yondoshadi. Shuningdek obraz yaratishda boshqacha yo'ldan boradi. O'tgan kunlarning bosh qahramonlaridan biri Kumush hokim sinf vakillari ichidan tanlab olingan bo'lsa, Dyushenning Tamillasi esa kambag'al va chala dindor oiladan chiqqan qiz tasvir obyektini qilib olinadi.

O'tgan kunlarda Kumush hech kimga o'xshatilmaydi, adib gapni bevosita Kumushdan, undagi sirli muhabbatning tug'ilishidan boshlaydi. Dyushen esa asarni endigina yetilib, muhabbat yoshiga yetgan Tamillani kayfiyatini tabiat tasviri bilan boshlaydi. Asrlar osha shariat va tariqat, din va eski urf odatlar iskanjasida bo'lgan qiz juvonlarni timsoli sifatida tanlangan Tamilla bilan bizni adib quyidagicha tanishtiradi;

Biror sonyadan so'ng nozik, yengil gavgdali Tamilla ko'rindi. U badaniga yopishib turgan ko'k gandudasi bilan asta zaytun daraxtiga yaqinlashdi. Uning bilaklari ochiq, qo'lida ayron to'ldirilgan kuvacha bor edi. O'zi yigirgan ipdan to'qilgan choriq kiygan oyoq to'piqlari ustida misdan yasalgan og'ir xalqalari yaltiramoqda edi. Yetib kelgach, qo'lidagi kuvachani ehtiyotlan yerga qo'ydi va yerga qaragani holda sekingina qaytib ketdi. Oqili uning orqasidan qarab qoldi.

Bundan ko'rinib turibdiki Tamilla ham nozik tabiatli, iboli va mehnatkash qiz, uni Oqili bir ko'rishdayoq mahliyo bo'lib qoladi. Asarni keying sahifalarida ko'rishimiz mumkin-

ki, Oqili Tamillaga qanchalik mahliyo bo'lgan bo'lsa Tamilla ham uni shunday sevib qoladi.

Tahlil va natijalar. O'tgan kunlar romanining bosh qahramoni Kumushbibini esa Qodiriy bizga shunday tanishtiradi "Qora zulfli, quyiq jingalak kiprik ostida timqora ko'zlar, qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis qiyig' qoshlar, to'lg'on oydek g'uborsiz oq yuzi biroz qizilliq'ga aylanganda, kimdandir uyalg'an kabi... shu vaqt ko'rpani qayrib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'turdi. Sharq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi biroz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'turgach boshini bir silkitdi-da, ijirganib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'z'igan soch tilalari o'rab olib jonso'z bir suratga kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi - Kumushbibini edi". [7; 29] Kitobxon romanni ilk bora o'qiyotganda Kumushning bu psixologik tasvirlarida g'oyibona ishq tamini his etadi. Kumushbibini go'zallik va xayyo bobida qanchalik noyib bo'lsa, aql-idrok bobida ham shu qadar noyobdir. U mukammal darajada savodli hamdir. Undagi bu jihatni "Qamoq" faslida ya'ni otasi va turmush o'rtog'ini tuhmat bilan dor ostiga eltganlarida yaqqol ko'rinadi. "Kumush kamdankam ayollar xotirjam qabul qiladigan kundosh masalasida ham oqilona yo'l tuta biladi. o'z zavjasini ota-ona oldidagi majmuriyati, qolaversa, islom shariati aqidalaridan o'z istaklarini ustun qo'yolmaydi" deya ta'kidlaydi professor U.Jo'raqulov. Kumush Toshkentga qaynotasini uyiga kelgandan keyin kundoshi bilan ro'baro kelib, uning ham tashqi ta'sirlar ostida xulq-atvorida jizzakilik alomatlari sizila boshlaydi. "Kumushning so'z o'yini" va Kundosh-kundoshdir" fasllarida bu xolatlarni uchratishimiz mumkin.

Endi, romanining boshida berilgan yana bir suhbatga nazar salsak. Ya'ni Otobek, Hamid va Rahmatning suhbatiga. Ular o'rtasidagi suhbat eng nozik mavzu ya'ni oila qurish haqida bo'ladi. Bir zamonda bir makonda yashayotgan bu uch yigitning fikrlashi turlichadir.

Ma'lumki ota-ona istagi bilan turmush qurish o'zbek xalqining azaldan qolgan urf-odatidir. Oila quradigan yigit-qiz bir birlarini yaqin yillargacha nikoh kuni ko'rishgan. Shariat, odat shuni talab qilgan. Rahmatning turmush qurishi ham shu tariqa amalga oshgan. Shu sababli u o'z hayotidan norozi "Uylangan xotining ta'binga muvafiq kelsa, bu juda yaxshi; yo'qsa, bunchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas" deydi u. Lekin, xotininga ko'ngli bo'lmasada ba'zi bir razil kishilardek xotin ustiga xotin olmoqqa qarshi. Otobek Rahmatning bu so'zlarini eshitib va ayollarni inson sifatida qadrlaganligi bois ularni gaplarini shunday davom ettiradi; ...oladigan xotiningiz sizga muaffiq bo'lishi barobarida, er ham xoting'a muaffiqtab bo'lsin [7;11] Bu so'zlar asar boshidanoq Otobekning insoniy fazilatlarini o'ta yuqori savyada ekanligini ko'rsatadi. Adib Otobekning nikoh va oila borasidagi fikrini yanada ochishni estamaydi, shu so'zlar bilan chegaralanadi. Shuning uchun ham suhbatni qolgan ikki yigitning bahsi bilan yakunlab qo'yadi. Rahmat Otobekka kulimsirab qaradida, Tog'asiga javob berdi. Xotin ko'payterib ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lsin dedi. Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmoq, menimcha, eng maq'bul ish. Masalan, ikki xotinlikning bittasi sizmi? uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlik yo'q.

Seningdek yigitlar uchun, albatta, bitta xotin ham ortiqchalik qiladir, deb kuldi Hamid. – Ko'p xotin orasida azoblanish nima degan so'z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o'rtasida janjalga to'yganimcha yo'q, ammo, xotinni uchta qilish o'yim ham yo'q emas [7;12]

Bu uch persanaj o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan ko'rinib turibdiki, uch milliy xarakter nish urib, nikoh

masalasidagi uch milliy qarash ifoda topibgina qolmay, asarni keying bosqichlarini ham tahmin qilish mumkin albatta.

Bu ikki asarda ham yana bir to'xtalishimiz kerak bo'lgan maishiy muammolardan biri bu kundoshlik muammosidir. O'tgan kunlarda Kumush va Zaynab, Tamilla romanida esa Tamilla va Mina o'rtasidagi munosabatlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Qodiriy ushbu masalaga sharqona yondoshadi, ya'ni kundoshlar o'rtasidagi suhbatlarda sharq ayollariga xos ibo hayoni saqlab qoladi.

Necha yoshga kirdingiz Zaynab opa?

O'n to'qqizg'a, shekilli.

Hali siz bola ekansiz, - dedi Kumush.

Siz nechiga kerdingiz?

Meni so'ramang, men endi qarib qoldim...

Hali yoshga o'xshaysiz-ku.

Necha yoshga kirgan deb o'ylaysiz?

Zaynab Kumushning to'lib yetmagan gavdasiga va o'n olti yoshlar chamaliq g'ubor tegmagan husniga hayron bo'lib, mulohazasini aytishdan qo'rqdi. Zaynabka qolsa, ehtimolki, Kumush o'zidan ham yosh chiqar edi.

Men qayoqdan bilay...

Yigirmaga kirdim.

Mendan bir yosh katta ekansiz.

Sizdan, albatta kattaman, dedi Kumush.

Suhbatdan ko'rinib turibdi-ki Kumush va Zaynab endi ko'rishgan kezarlarida opa singildek bir birlari bilan enoq bo'lishadi. Oradan o'n-o'nbeshtan kun o'tib Zaynabni yuragiga g'ulg'ula tusha boshlaydi, Otobekni Kumushdan qizg'anib, rashk olavida yona boshlaydi. Bu holatdan Kumushning ichiga xovotir tusha boshlaydi, keyingi kunlarini qaynotasi uyida tasavvur eta olmaydi. Zaynabni savodsizligi va hissiyotga beriluvchiligi tufayli asar so'ngida Kumush qo'rqan ish sodir bo'ladi ya'ni Zaynab kumushni zaxarlab o'ldiradi. Miyoridan oshgan rashk Zaynabni aqlidan ozdiradi. Zaynabni azaliy orzusidan batamom mosuvo qiladi, ya'ni Otobek tomonidan taloq qilinadi va uydan xaydaladi. Yozuvchi bu yerda meyoridan oshgan rashk insonlarning boshiga balo olib kelishi haqida ogohlantirib o'tmoqda.

Endi aynan shu muammo yuzasida Tamilla romaniga to'xtaladigan bo'lsan, Tamilla va Mina o'rtasidagi birgina suhbatga nazar salsak:

...Diya dimani biraman lekin, bir shart bilan

Tamilla qizardi, yerga qaradi, yana so'zida davom etdi:

- Bugun o'z navbatingni menga berish sharti bilan...

- Mina javob bermadi. Tamilla ko'zini ko'tarib unga qaradi.

Xozirgina shodlik bilan nurlanib turgan Minaning yuzini qorong'ulik bosdi. Yumilgan lablari hayajon bilan uchdi, yana juqurlasha boshlagan ko'zlari uzoq-uzoqlarga qarab qoldi.

- Ol mana bularni ham ol!

Mina ko'nmaganini bildirib bosh chayqadi. Uning lablari hali ham yumilgan, ko'zlari uzoq-uzoqlarga boqqan edi.

Tamilla sandiqdan boshqa narsalarni ham oldi.

Qara, mana bular qanday yaxshi bularni ham ol!

Minaning vujudini qaltiroq bosdi. Ko'zlari ilgaringiday, odatdagiday yolqinlana boshladi, og'zi ochildi.

- Yo'q opa bo'lmaydi! – dedi. – Men lazzatlanish navbatimni sotmayman!

- Mina diya dima bilan boshqa ziynat asboblarni gilam ustiga qo'yib, o'rnidan turdi[169].

Xulosa va takliflar. Kundoshlar o'rtasidagi suhbatdan ko'rinib turibdiki Qodir va Dyushenning yozish uslubi farq qiladi. Qodiriyda milliylik o'ziga xoslik ibo hayo bor. Dyushenning yozish uslubida esa ovropacha qarash bor nazarimizda. Biz ushbu maqolada asarlarda birilgan maishiy

muammolarni tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan edik. Asarlarda yuqorida tilga olingan nomlardan tashqari qator epizodik tarzda namoyon bo'lgan obrazlarni

ham uchratasiz. Ikkala adib ham o'z davrining muammolarini qoyilmaqom qilib yorita olgan. Ayniqsa xotin-qizlar masalasiga ozgacha urg'u bera olgan deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. A.Qodiriy. O'tgan kunlar – Toshkent “Navro'z” 2019.
2. В.А.Маматкосимова. 20\30 йиллар ўзбек марифатпарварлик адабиётида бадий таржиманинг ўрни. 2007
3. Дюшен Фердинанд. Камар. Перевод с французского Н.А.Макшеевой-Ленинград Мысль – 1926
4. Duchene Ferdinand Kamar. Roman d'une femme arabe. Paris, Albin Michel, 1926
5. Жўракулов.У. Қодирий ва роман тафаккури; монография – Тошкент: Нурафшон бусинесс, 2020.
6. Ф.Дюшен. 1997 “Камар” “Тамилла” романлари. Тошкент Маънавият.



UDK:420:415.61:398.9(045)

*Nargiza AMIRQULOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi*

Qarshi DU dotsenti v/b M.Omonova taqrizi asosida

STAGES OF FORMATION OF PHRASEOLOGICAL COMPETENCE

Annotation

Phraseologisms are a treasure of language heritage, including many idiomatic expressions, proverbs and sayings that embody the essence of Uzbek culture and traditions. Phraseology shows the ingenuity and creativity of speakers, from colorful metaphors that evoke vivid images to meaningful aphorisms that turn complex thoughts into concise phrases.

Key words: Phraseology, linguistics, Uzbek language, human history, speaker, word, stable idioms, characters, linguistic department, expression, stable sentences.

РАЗВИТИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

Фразеологизмы представляют собой сокровищницу языкового наследия, включающую множество идиоматических выражений, пословиц и поговорок, воплощающих суть узбекской культуры и традиций. Фразеология демонстрирует изобретательность и креативность говорящих: от красочных метафор, вызывающих яркие образы, до содержательных афоризмов, превращающих сложные мысли в краткие фразы.

Ключевые слова: Фразеология, языкознание, узбекский язык, история человечества, носитель, слово, устойчивые фразеологизмы, персонажи, лингвистический отдел, экспрессия, устойчивые предложения.

FRAZEOLIGIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Frazeologizmlar o'zbek madaniyati va an'alarining mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan ko'plab idiomatik iboralar, maqol va matallarni o'z ichiga olgan til merosining xazinasi hisoblanadi. Kundalik suhbatda, adabiyotda yoki rasmiy nutqda qo'llanilishidan qat'i nazar, bu iboralar muloqotni shakllantirish, aloqalarni mustahkamlash va madaniy o'ziga xoslikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, tilshunoslik, o'zbek tili, inson tarixi, so'zlovchi, so'z, turg'un brikmalar, belgilar, tilshunoslik bo'limi, ifoda, barqaror jumlarlar.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar va iboralar o'rganiladi. "Frazeologiya". termini grekcha "phrase" fraza,ifoda; "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birikmalar va barqaror jumlarlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlarlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jummalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi zamonaviy tilshunoslikda hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. V.V. Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlarlar hamda qanotli so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyaning o'rganish ob'yekti bo'la olmaydi" deb aytib o'tgan .

Frazeologizm til tizimining asosiy birligi sifatida tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan qiyinchilik bilan farqlanadigan, murakkab, ko'p aspektli lisoniy hodisasi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni o'rganish ob'yekti haqida tilshunoslar tomonidan ularning o'nlab mezon va belgilari qayd etilgan. Frazeologizmlar maqomining yetarli darajada aniq belgilanmaganligi frazeolog-olimlar o'rtasida hozirgi kungacha ko'plab bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, tashxis yumshatib aytilganda yolg'onni juda oshirib yuborish ham kerakmas. Shunchaki haqiqatni yumshatibroq so'zlash, bemorning kelajagi haqida o'ylab, unda o'zidagi kasallikni yengib chiqishga ishtiyoq uyg'otib qo'rilsa bo'lgani. Bu xollarda yuqorida ta'kidlab o'tganimiz perefraza stilistik vositasidan foydalanish mumkin. Zero, bemorning tuzalishi uchun bo'lgan ishonchi kasallikka qarshi kurashdagi dastmoyadir. Bunday paytda, asossiz inkor etish yoki shunchaki ko'ngil ko'tarishga o'rin yo'q, nafi ham tegmaydi. Bemor haddan tashqari optimistik so'zga ishonishi u yoqda tursin, shifokorni yengil tabiatli odam deb hisoblaydi. Bunday chog'larda shifokor yoki hamshira bemorning kasalligi, uning

dardini davolashga mone'lik qilmasligini bildirib qo'yimg'i kerak.

Men tadqiqotlarim mobaynida ingliz va o'zbek tibbiyot xodimlari nutqida yolg'onni ifodalovchi til vositalarini qo'llash, be'morning kasallikka qarshi kurashishdagi ta'siri juda muhimligi hamda erkak va ayol shifokorlarning nutqidagi ritorikani o'rganish orqali umumiy ritorika va muloqot turlari tendensiyalarni ajratib o'rganib chiqdim. Shu bilan birga nutq madaniyati- bu nutqning mukammalligidan dalolat beruvchi xususiyatlar va sifatning majmui va tizimi ekanligi ko'rib chiqildi.

Shunday qilib, ijobiy va salbiy, ya'ni qarama-qarshi tuyg'ular ummoni mavjud muhitda xizmat qiluvchi tibbiyot xodimlaridan ziyaklikni talab etilishi bilan birga tibbiyot xodimlari nutqida yolg'onni ifodalovchi til vositalarni qo'llash, bemorlar o'rtasidagi nutq madaniyatining meyoriy, kommunikativ va axloqiy tarkibiy qismlaridan iborat ekanligidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR

1. Shodmonov X, Eshmurodov X, Tursunov O. Asab va ruhiy kasalliklar. – Toshkent, “Bilim”, 2004.
2. Zokirxo'jayev Sh.Y, Solihov M.U Shifokor va bemor: o'quv qo'llanma-T.:Toshkent Tibbiyot akademiyasi, 2016
3. Qosimov E.YU Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. – T.: 2002
4. Beylinson L.S. Meditsinskiy diskurs // Yazikovaya lichnost: institutsionalniy i personalniy diskurs. Volgograd: Peremena, 2020.
5. Daphne du Maurier. The Birds and Other Stories. – United Kingdom: Longman, 1993.
6. Matvaliyev V. Tibbiyot psixologiyasi, etikasi va deontologiyasi asoslari. – Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot. 1991.
7. Suyarova N.Y. Logicality and metaphor as an adjacent peculiarity of speech // International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 7/Issue: 11-Macedonia, 2018. – P. 30-36 (Impact factor ICV: 6.88).
8. Atamurodova F.T. Utopian Views in different eras and its evolution. International Journal of Formal education.VOLUME 2, (12) 2023., p.100-104



Shohsanam QARSHIYEVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktorant
E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru

GDPI dotsenti, f.f.n I.Pardayeva taqrizi asosida

QADIMGI TURKIY MONIYLIK ADABIYOTIGA ALOQADOR TADQIQOTLARNING YETAKCHI XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada qadimgi turkiy moniylik adabiyoti yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, adabiyotshunoslarning moniylik adabiyoti namunalari tadqiqi va talqinidagi nazariy fikrlari, adabiy mulohazalari, shuningdek, ilmiy-ijodiy qarashlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi turkiy adabiyot, moniylik oqimi, moniylik adabiyoti, moniylik she‘rlari, Nasimxon Rahmonov, H.Abdullayev, R.Alimuhammedov, M.Mamatkulov.

LEADING CHARACTERISTICS OF RESEARCH RELATED TO ANCIENT TURKISH MONITORAL LITERATURE

Annotation

The article deals with the research works conducted on the ancient Turkic monic literature and their specific features, the theoretical opinions of literary critics in the study and interpretation of monic literature samples, literary opinions, as well as scientific and creative views.

Key words: Ancient Turkic literature, Monian flow, Monian literature, Monian poems, Nasimkhan Rahmonov, H.Abdullayev, M.Mamatkulov.

ВЕДУЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ИССЛЕДОВАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ДРЕВНЕТУРЕЦКОЙ МОНИТОРАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРОЙ

Аннотация

В статье рассмотрены исследовательские работы, проводимые по древнетюркской монической литературе и ее специфическим особенностям, теоретические взгляды литературоведов при изучении и интерпретации образцов монической литературы, литературные мнения, а также научные и творческие взгляды.

Ключевые слова: древнетюркская литература, монийский поток, монийская литература, монийские поэмы, Насимхан Рахмонов, Х.Абдуллаев, М.Маматкулов.

Kirish. Bilamizki, qadimgi turkiy adabiyot o‘z davridagi diniy oqimning mahsuli sifatida paydo bo‘lgan. Shunday ekan, turonzamin tarixida moniylik, buddaviylik, shomonlik ta‘sir o‘laroq o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bu adabiy namunalar tadqiqotchlarimiz tomonidan tahlil va tadqiq talab e‘tadi.

Insoniyatni solihlikka yetaklashda dunyoning turli joylarida musharak yo‘llar mavjud bo‘lib, bu yo‘llar bir manzilga olib boradi. Manzil - inson, inson ko‘ngli. Hindistonda – buddaviylik, Eronda – moniylik, Yaqin Sharq mamlakatlarida – islom, aqidalar-u e‘tiqodlar turlicha bo‘lsa-da, maqsad bir. Ana shu musharak yo‘llar bir manzilda komillik manzilida tutashadilar. Bugun biz ko‘p gapirayotgan ma‘naviyatning pirovard natijasi ham jamiyatga komil insonni tarbiyalab yetishtirishdan iborat bo‘lgan edi va shunday bo‘lib qoladi. [Abdullayev H.D. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyat-matbaa birlashmasi. 2020.50-bet.]

“Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo hududida ko‘plab diniy-falsafiy ta‘limotlar rivoj topgan. Xususan, buddaviylik, moniylik, xristianlik va ko‘plab boshqa diniy ta‘limotlarning yoyilishi va rivojlanishida asosiy rol ni o‘ynagan. Shu bilan birga, mazkur diniy ta‘limotlarni targ‘ib etuvchi yoki ayni adabiy muhitda yaratilgan manbalar ko‘plab uchraydi” deb yozadi adabiyotshunos Rixsitilla Alimuhammedov. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchisi, professor Nasimxon Rahmonovning: “Markaziy Osiyodagi turli diniy oqimlar aralash holda faoliyat ko‘rsatgani va birining faoliyati

tugamasdan boshqa biri boshlangani uchun deyarli har bir oqimda o‘zidan oldingi yoki o‘z davridagi boshqa bir oqimning izlarini ko‘ramiz. Yozma adabiyotdagi turli diniy oqimlarning izlari ana shundan dalolat beradi va isbotlaydi. Moniylik oqimi ham bu ta‘sirdan holi emas. Zotan, Markaziy Osiyodagi turli oqimlarning bir davrda faoliyat ko‘rsatgani axloqning yuksak darajadagi mahsulidir” qabilidagi fikrlari ayni paytda o‘rinlidir. [Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent. “Xalq merosi” nashriyoti, 2002. 14-bet]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.Rahmonovning “Ruhiyatdagi nur murodi” kitobi moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy asardir. Unda turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan moniylik va budda oqimidagi adabiyot to‘g‘risida umumlashma xulosalar bayon etiladi hamda adabiy matnlar hozirgi o‘zbek tilida keltiriladi. Mazkur manbada V-VIII asrlarda turkiy adabiyotning shakllanish jarayoni, yaxshi ma‘naviy muhitning adabiyotni rivojlantirishga xizmat qilganligi tahlil qilinadi.

2017-yilda olim Nasimxon Rahmonov tomonidan yaratilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligiga moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot haqidagi batafsil ilmiy xulosalarini va ishonchli, asl adabiy manbalar asosida to‘plangan va o‘zining ko‘p yillik ilmiy-ijodiy tajribalari bilan to‘yintirilgan qarashlarini batafsil bayon etadi. O‘z yo‘nalishida katta tajriba hosil qilgan tadqiqotchi moniylik oqimi va adabiyoti jamiyatga komil insonni yetkazib berishday o‘ta muhim vazifani bajarganligi bilan ahamiyatli ekanligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, bu davr adabiyoti ta‘sirida

yozma adabiyotning paydo bo'lishi juda katta ma'naviy kashfiyot ekanligi ko'rsatiladi. Nasimxon Rahmonov tomonidan darslikda moniylarning tavbanomasi – “Xuastuanifit” va uning qadimgi turkiydagi uchta nusxasi, manbaning o'rganilishi, tuzilishi, g'oyaviy mazmuni, asarning moniyalar jamoasi uchun madhiya, nizom sifatida muhim ahamiyat kasb etganligi yuzasidan fikrlar bildiriladi. Olim moniylik adabiyotini tadqiq etish bilan bir qatorda uni xalqqa yaqinlashtirishga, bu adabiyot zamiridagi ilg'or ijodiy pafosni adabiyot ixlosmadlari qalbiga yuqtirishga muvaffaq bo'ldi.

Adabiyotshunos olim R. Alimuhammedov qadimgi turkiy moniylik adabiyoti tadqiqotchilaridan biri. U turkmoniy muhitida vujudga kelgan alqov she'riy janri xususida qimmatli mulohazalarni o'rtaga tashlaydi. Ularning xudolar va payg'ambar sharafiga, turli marosimlar oldidan aytiladigan va kundalik hayotda tangridan o'z gunohlarini kechirilishini tilab qilinadigan turlari mavjud.

G'arb adabiyotshunosligidagi gimn - [yunoncha hymnos] “tantanavor qo'shiq”larga o'xshash bo'lgan mazkur janr qadimda xudolar sharafiga bag'ishlangan she'r bo'lgan. Muallif davr o'zarishi bilan janglarda g'olib bo'lgan tomonni madh etuvchi, qahramon yoki biror xalqni e'tirof etib kuylangan qo'shiq sanalganligini ta'kidlash bilan bir qatorda “Adabiy tur va janrlar” kitobiga tayanib janr mohiyatiga izchil ta'rif beradi. “Uning spetsifik tomonlari tik turib, xor bo'lib aytilishi, rasmiy marosimlar va tantanalarda g'urur bilan

kuylanishidir. Janrning muhim belgilaridan yana biri gimn matni va musiqasining tantanavorligi va yuksak uslubda ekanligi, unda faxr, ruhan tetiklik hissining bo'rtib turishi, mazmunning dastur xarakteridali, publitsistik pafosdali, maqto'v va madhiya tusini olishidir” [Adabiy turlar va janrlar 1992, 185-bet]. Qadimgi turkiy moniylik adabiyotida yaratilgan alqovlar ham aynan shunday xarakter xususiyatiga ega ekanligini u biror kishining qilgan ishlari va ijobiy sifatleri maqtalishi jihatidan sharq musulmon adabiyotida yaratilgan “qasida”larga, g'arb va rus she'riyatida “oda”ga, qadimgi hind adabiyotidagi “veda”larga, zardushtiylikdagi “yashit”larga o'xshatish mumkinligini ilmiy manbalar bilan bayon etadi tadqiqotchi. Alqov atamasi haqida Mahmud Qoshg'ariy quyidagi fikrni beradi: alqış — olqış, maqtash; duo qilmoq; tabrik; birovning yaxshi xislatlarini eslash kabi ma'nolarni anglatadi [Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. T.G'afur G'ulom. 2017, 104-b].

Olim moniylik adabiyotidaga Moniyga atab bitilgan mashhur alqovni keltiradi va hozirda uning matn parchalari Germaniyada, Berlindagi Brandenburg akademiyasi Turfanforschung, Digitales Turfan-Archiv fondida saqlanayotgan Uigurische Texte bo'limidagi U 0099, U 0100, U 0101a,b, U 0102a,b, U 0103a,c recto ko'rsatkichli parchalardan o'rin olganligini aytadi. Moniy yozuvida yozilgan ushbu alqov matni tohar va turkiy tilda bo'lib, muallif uni quyidagicha taqqoslash mumkinligini yozadi:

Toharcha matn	Turkiycha matn
lkāsi šuke pidār-mani tusa tusa pällāmar	körgäli toqılığ qañim mani burxan anin anı üzä ögä yükünür män

Alqovlardan yana biri Oy tangri va yorug'lik ma'budasiga atab yaratilgan bo'lib tadqiqotchi uning shakli tuzilishiga diqqat qaratadi. Shuningdek olim o'z ishida moniylik adabiyoti namunalarining ikki tillilik xususiyatiga alohida urg'u beradi. “Xuastuanifit” asari va uning mohiyati, ichki va tashqi tuzilishi, ifoda usuli va matn strukturasi, so'zlarning qo'llanilishi kabi muhim masalalarga adabiy-ilmiy uslubda yondashadiki, bu moniylik adabiyoti tadqiqida ko'zga ko'ringan ishlardan biri hisoblanadi.

Guliston davlat universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent M.Mamatqulov 2004-yilda “Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasidayoq moniylik oqimi ta'sirida yuzaga kelgan adabiy janrlarning shakli va mazmuniy jihatlariga jiddiy e'tibor qaratib, ularni tavsiflash va tasniflashni amalga oshirgan edi. Asosiy e'tibor to'rtlik va marsiya janrlarining taraqqiyoti masalalariga qaratilgan mazkur tadqiqotda moniylik adabiyotida ham to'rtlik janri yetakchi mavqega ega bo'lganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotchi Mahmud Qoshg'ariyning “Qutadg'u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlarini kuzata turib bu lirik janrning ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini ilmiy asoslaydi. “Qutadg'u bilig”da masnaviy janri peshqadamlik qilsa-da, bir qancha to'rtliklarni ham kuzatish mumkin ekanligini qadimgi turkiy adabiyotga xos xususiyatlarning takrorlanishi deb baholaydi. Shunisi aniqki, islomgacha bo'lgan adabiyotda to'rtliklar aliteratsion she'rlarda qo'llaniladi. Ishda yana bir o'ziga xos adabiy janr – marsiyaning ibtidoiy shakli, yozilish sababi va mohiyatiga alohida urg'u beriladi. Janrning nomi arabcha bo'lsa-da, bu adabiy tushuncha dastlab og'zaki shaklda, keyinchalik esa yozma adabiyotda yig'i ko'rinishida tajalli qilganligini qayd etadi. Mashhur shaxslar vafotiga bag'ishlangan bunday she'riy istiloh O'rxun-Enasoy obidalarida ham uchrashini misollar asosida tahlil qiladi. Hatto Enasoy obidalarining yuzaga kelishi shu janr asosiga qurilganligini tarixiy-qiyosiy aspektida tekshiradi. Tadqiqotchi ishda turkiy adabiyotda marsiya janrining uzoq va takrorlanmas taraqqiyot bosqichiga egaligini, janrning

yoziishi bir xil qolipli va qat'iy shaklga ega emasligini, shu boisdan u bir qancha lirik ko'rinishlarda namoyan bo'lishi mumkinligini isbotlaydi. Bu janr ilk bora o'lim marosimi bilan bog'liq holda ajdodlarimiz og'zaki nutqida paydo bo'lib, shundan so'ng yozma adabiyotga ko'chganligini va o'ziga xos ko'rinishga, janr mezonlariga ega bo'lganligini ilmiy-adabiy qarashlar yordamida tasdiqlaydi. Muallif tahlillari orqali anglashiladiki, qadimgi turkiy adabiyot, chunonchi, moniylik adabiyotida badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalanilgan. Talmeh, tashxis, tashbih, takrir, ruju kabi bir nechta lafziy va ma'naviy san'atlarning kuzatilishi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan e'tiborga molik.

Tadqiqot metodologiyasi. “Janrlarning takomilida badiiy tasvir vositalarining vazifasi muhim omil ekani namoyon bo'ladi. Qadimgi turkiy moniylik she'rlarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ilgari surilayotgan fikrlarni misralarda berilayotgan mazmunni ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va shu bilan birga, ularda misra, bayt, umuman, she'ning jozibadorligi, obrazlilik, ta'sir kuchini oshirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi”, [Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2006-y. 57-b.] deb yozadi olim o'zining 2006-yilda nashr etilgan “Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya” ilmiy risolasida. Risola muallifning qadimgi turkiy adabiyot haqidagi fikrlarini mujassamlashtirgan kirish qismi, “Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik shakli va takomili”, “Qadimgi turkiy adabiyotda marsiya janri” va “Qadimgi turkiy moniylik she'rlari badiiyatiga doir” kabi bir nechta bo'limlardan tashkil topgan asosiy qism va xulosani o'z ichiga oladi. Muallif har bir mavzuni qadimgi turkiy adabiyotning ifoda imkoniyati, ijtimoiy muhit va adabiy jarayon nuqtayi nazaridan tadqiq etadi. Kitobning asosiy qismi qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya janrining paydo bo'lishi va janrlar taraqqiyoti masalalari, qadimgi turkiy lirikaning g'oyaviy-nazariy manbalari, ajdodlarimizning ilk she'riy dunyoqarashi bilan bog'liq masalalar, olam va odam konsepsiyasining qadimgi turkiy she'riyat bilan omuxtalashuvi, ulardagi ijtimoiy-axloqiy qarashlar bilan

bog'liq masalalar tadqiqiga bag'ishlangan. Adabiyotshunos olim mazkur ish orqali Ahmad Taroziy ("Funun ul-balog'a"), A.Husayniy ("Badoyi us-sanoyi") T.Zeshniy ("San'ati suxan"), V.Rahmonov ("She'r san'atlari") T.Boboyev ("She'r ilmi ta'limi"), A.Hojiahmedov ("She'riy san'atlar va mumtoz qofiya"), T.Boboyev, Z.Boboyeva ("Badiiy san'atlar"), D.S.Lixachev ("Исследования по древнерусской литературе") kabi lirika ilmi bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy qarashlari va she'riy tafakkuri vositasida bu davr adabiyotini ham badiiy jihatdan tahlil va tadqiq qilishga muayassar bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi kabi o'z davrining yetuk she'rshunos va adabiyotshunoslarining she'riy san'atlar mohiyati yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalariga tayangan tadqiqotchi o'z badiiy qarashlarini ilmiy-qiyosiy usulda bayon etadi. "Islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy she'riyatda ham tashbih asosida yaratilgan misralar alohida o'rin egallaydi. Moniylik adabiyotining mahsuli bo'lgan "O'lim tasviri" nomli she'r didaktik yo'nalishga mansub". [Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rluk va marsiya. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2006-y. 46-b.]

Uning "...asosiy mavzusi – to'rtta dono tangrini inkor etish qanday oqibatlariga olib kelgani to'g'risida. She'rda aytilishicha, chinakam inson tangrilarining kalomiga itoat etsin. To'rtta dono tangriga itoat etsalar, to'rt og'ir azobdan qutuladilar" [Rahmonov N.Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti, 2002, 29-b.] aks holda, buning oxirati jahannam. Shuningdek olim turkolog R.R.Aratning "Eski türk šiiri" kitobidan quyidagi kabi baytlarni keltiradi va tahlilga tortadi:

Tetru sachlig'qurtg'a yek kelir tiyur,

To'lilig' bulitteg to'nqi qushlig' tiyur.

Ters, junli, qari shayton kelar, derlar,

To'la bulut kabi qora qoshlig' derlar. [Arat R.R. Eski türk šiiri – Ankara: 1991. S.24]

Tadqiqotchining "Bu yerda muallif tashbih usulidan foydalanib, qari shaytonning qoshlarini bulutning yog'moqchi bo'lgan paytdagi holati – qop-qoraligiga o'xshatmoqda. Keyingi misralar esa uning boshqa a'zolarini tasvirlash bilan davom ettiriladi:

Qanlig' buqachteg qaraqti tiyur,

Qashg'uqteg qara bo'y emki tiyur [Arat R.R. Eski türk šiiri – Ankara: 1991. S.24] kabi misrama-misra tahlillari, badiiy-tasvir vositalarining to'rtliklar g'oyasini yuzaga chiqarishdagi muhim ahamiyati jihatidan yoritilishi risolaning kitobxonlar uchun sevimli, mutaxassislar uchun esa foydali bo'lishini ta'min etgan. Muallif, avvalo, biror badiiy san'atni o'z istilohi, mazmun-mohiyati, shakl-shamoyili bilan birorta asosli manbadan keltiradi. Unga o'zi ham qo'shimcha qilib, nazariy ma'lumotni kengaytiradi, tushunarligi va aniqligini oshiradi, ifoda imkoniyatini izohlaydi. Shundan so'ng qadimgi turkiy she'rning matnini qayd etadi, misralarni yuqoridagi qonuniyatlar asosida tekshiradi. Shuningdek, she'rning yozilish tarixi, keyingi davrlardagi taqdiri, bugungi kundagi

taraqqiyot bosqichiga ham alohida to'xtalib o'tadi va o'rganishlar asnosida quyidagi kabi xulosalarni keltirib chiqaradi: "Qadimgi turkiy moniylik she'riyati badiyatini o'rganish ularning turkiy adabiyotdagi shakllanish jarayonini tasavvur qilish imkonini beradi. Qadimgi turkiy adabiyotdagi mavjud badiiy tasvir vositalarining ilk klassik davr adabiyotida ham davom etganligi turkiy adabiyotning uzluksiz taraqqiyotda bo'lganligidan dalolat beradi. Faqat qadimgi turkiy adabiyotdagiga qaraganda keyingi davrlarda badiiy tafakkur rivoji bilan bog'liq ravishda ularning imkoniyatlari kengaya borganligi ko'rinadi." [Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rluk va marsiya. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2006-y. 58-b]

M.Mamatqulov qadimgi turkiy moniylik adabiyotini turk-moniylar muhiti yuzasidan mulohazalari, shakl va mazmun, badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasi borasida ilgari surgan estetik qarashlari bilan tadqiq va tahlil qilgan.

Xulosa va takliflar. Shuningdek, olim bu qo'llanmada mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti, mumtoz she'r, mumtoz adabiyotdagi an'anaviy mavzu va obrazlar mumtoz o'zbek adabiy tilidagi filologik asarlar va ularning badiiy adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar berish bilan bir qatorda, islomgacha bo'lgan adabiyot, xususan, moniylik adabiyotiga alohida urg'u berib o'tadi. Olim moniylik mazmunidagi turkiy adabiyotning beshinchi asrlardan boshlab yaratilganligini, Moniy va uning ta'limoti insoniyatda sobit va uyg'oq ruhni shakllantirib kelganligini qayd etadi. Budda mazmunidagi turkiy adabiyot ham buddaviylik ta'limotini ilgari suradi. Ayniqsa, "Oltun yorug'", "Maytri smit" asarlari Markaziy Osiyoda, xususan, Turonzaminda ma'naviy madaniyat shakllanishiga muhim hissa bo'lib qo'shilganligini, moniylik oqimi qadimgi turkiy muhitdagi alohida, o'ziga xos bo'lgan oqimning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. "Moniy tarixda birinchi bo'lib, Markaziy Osiyoda o'zigacha yaratilgan boshqa diniy oqimlardan farqli o'laroq, hayotga yaqin g'oyalarni o'zida mujassamlantirgan, keng qamrovli diniy tizimni yaratishga harakat qildi" [Abdullayev H.D. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2020. 49-bet] deb yozadi olim.

Xullas, professor Nasimxon Rahmonovning "Ruhiyatdagi nur murodi", "O'zbek adabiyoti tarixi namunalari", "O'zbek adabiyoti tarixi" kabi kitoblarida va Muzaffar Mamatqulovning "O'zbek adabiyoti tarixi", "Qadimgi turkiy adabiyotda to'rluk va marsiya", "Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi", shuningdek, Aziz Qayumov, Hamro Abdullayev, R.Alimuhammedov, A.Abdurahmonovlarning ilmiy asarlarida moniylik adabiyotining yuzaga kelishi, bu davrning adabiy jarayondagi ahamiyati, oqim ta'sirida yaratilgan adabiy manbalarning poetikasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, timsollar tizimi, obrazlar ko'lamini va til xususiyatlari haqida muhim fikrlar va diniy-falsafiy, axloqiy-estetik qarashlar bayon etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev H.D. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2020. 49-bet
2. Раҳмонов Н. Ирқ битиги. Адабий мерос. – Тошкент, 1984. №29. – 60–67 б.;
3. Раҳмонов Н. Ибратли китоб. Гулистон. – Тошкент, 1987. №2. – 26–27 б.;
4. Uluslar Arası Türk Dil Kurultayı. 1996. – Ankara, 1999. – S. 961–972;
5. Uluslar Arası Türk Dil Kurultayı. Монийчилар тавбаномаси. «Филология масалалари». 2003/1. – Тошкент, 2003. – 16–20 б.;
6. Mamatqulov M.R. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi. (Moniylik she'rlari va "Devon-u lug'otit turk" asari asosida). Fil. fan. nom. diss. –Toshkent, 2004;
7. Mamatqulov M.R. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent. "Xalq merosi" nashriyoti, 2002. 14-b



UDK:83.821.512.133

Sayyora LATIPOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:sayyoralatipova97@gmail.com

BuxDU professori G'.Murodov taqrizi asosida

PERSONALITY AND HISTORICAL REALITY OF OGUKHAN IN JORA FAZIL'S "THE THRESHOLD OF SEPARATION"

Annotation

This article discusses the role of historical works in the work of the famous writer Jora Fazil, the artistry of the novel, and the harmony of the events depicted in the work with historical reality. The significance and influence of historical works on the reader's life is analyzed. The simple language of the author's works, especially "The Threshold of Separation", ensures that readers of all ages can understand the work equally.

Key words: historical novel, artistic interpretation, image, hero, writer's skill, historical reality.

ЛИЧНОСТЬ И ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ ОГУЗХАНА В РАБОТЕ ЖОРЫ ФАЗИЛЯ «ПОРОГ РАЗДЕЛЕНИЯ»

Аннотация

В данной статье рассматривается роль исторических произведений в творчестве известного писателя Жоры Фазиля, художественность романа, гармония изображенных в произведении событий с исторической действительностью. Анализируется значение и влияние исторических произведений на жизнь читателя. Простой язык произведений автора, особенно «Порога разлуки», гарантирует одинаковое понимание произведения читателями всех возрастов.

Ключевые слова: исторический роман, художественная интерпретация, образ, герой, писательское мастерство, историческая реальность.

JO'RA FOZILNING "AYRILIQ OSTONASI" ASARIDA O'G'UZXON SHAXSI VA TARIXIY VOQELIK.

Annotatsiya

Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Jo'ra Fozil ijodida tarixiy asarlarning o'rni, romanning badiiyati, asarda aks ettirilgan voqealarning tarixiy haqiqat bilan uyg'unligi haqida fikr yuritiladi. Tarixiy asarlarning kitobxon hayotidagi ahamiyati, ta'sir qilish darajasi tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarining, xususan, "Ayriliq ostonasi" sodda tilda yaratilganligi barcha yoshdagi kitobxonlar asarni birdek tushunishlarini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, badiiy talqin, obraz, qahramon, yozuvchi mahorati, tarixiy voqelik.

Kirish. Nosirning tarixiy mavzuda yaratilgan asarlaridan biri "Ayriliq ostonasi" romani bo'lib, bu asarda adib qadimgi turkiy xalqlarning o'z erki, ozodligi, huquqi uchun mardonavor kurashini tasvirlagan. Mazkur romanda turkiy xalqlar tarixining eng shonli va ziddiyatli davrlaridan biri o'zining butun dramaturgiyasi bilan tasvirlanadi. Tarixdan ma'lumki, Mode xoqon (O'g'uzxon) o'zining 36 yillik xoqonlik davrida turkiy xalqlar uchun, saltanat taraqqiyoti va ravnaqi uchun katta ishlarni amalga oshirgan. U yashab o'tgan davrdan buyon o'tgan 2300 yil mobaynida turkiy xalqlar tarixi va adabiyotida, xususan, folklorida uning faoliyati va shaxsiyati to'g'risida ko'plab asarlar yaratildi. Botur Tangriqut nomi O'g'uzxon, O'g'uz xoqon adabiy personaji sifatida turkiy xalqlar, xususan, o'g'uzlar (g'uzlar) eposining bosh qahramonlaridan biriga aylangan. O'g'uzxon haqida yuz yillar davomida "O'g'uznoma" dostonlari yaratilgan. Taxminan 7-8-asrlarda og'zaki ravishda yaratilgan "Kitobi dadam Qo'rqu" ("Qo'rqu ota kitobi") dostonlarining birida O'g'uzxon haqida keltirilgan ma'lumotlar ham juda mashhurdir. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida yozib o'tgan. "O'g'uznoma"ning eng ko'p tarqalgan varianti tarixchi olim, Xiva xoni Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk" (1669) asarida saqlangan. Alloma Fitrat ham "O'g'uzxon" dramasi yozganligini ta'kidlab o'tish joiz[1].

Yuqoridagi ma'lumotlardan tashqari, yana O'g'uzxon haqida bir qancha asarlar yaratilgan. Xususan, Mirzo

Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", tarixnavis Rashiddin Fazlullohning "Jome at-tavorix", Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami", Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" nomli asarlari O'g'uzxonning shaxsiyati, faoliyatiga bag'ishlangan asarlardir.

"To'rt ulus tarixi" hamda "Shajarayi turk" asarlarida O'g'uzxonning musulmon ekanligiga ishoralar mavjud. Negaki, u tug'ilganida onasiga musulmon bo'lmasa, emmasligini, uylanganida esa xotinlariga musulmon bo'lishlari kerakligini aytadi. Asarda qayd qilinishicha, avvalgi ikki xotini bu shartga ko'nishmagan, uchinchi esa imontalab bo'lgani uchun bajonidil rozi bo'ladi.

Yozuvchining "Ayriliq ostonasi" romani O'g'uzxonni bag'ishlangan boshqa asarlardan birmuncha farq qiladi. Voqealar rivoji ham biroq boshqacharoq tarzda bayon etiladi. Bunda Mode xoqon nomi bilan mashhur bo'lgan O'g'uzxon Kuntangriga sig'inuvchi shomonlar vakili hisoblanadi. Uning shomon ekanligi asarning juda ko'p o'rinlarida ko'rsatilgan. Ma'lumki, turkiylar bo'riga alohida hurmat bilan qarashgan. O'g'uzxonning bayrog'ida ham bo'ringa boshi tasviri tushirilgan. Jo'ra Fozil asar voqealari ishonchli chiqishi uchun mazkur jihatlarga ham e'tibor qaratgan. "Men dushman oldida bunchalar past tushishdan ko'ra jang maydonida mardona o'limni afzal bilgayman. Toki, qizil qonim bo'ri boshli muqaddas bayrog'imni alvon rangga bo'yasin!" Mazkur

parcha O'g'uzxonning kuchli iroda sohibi, mardligini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur ishda Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" romanida tarixiy voqealar aks ettirilgan bo'lib, unda qiyosiy-tarixiy, struktur metodlardan foydalanilgan.

Natijalar. Mazkur roman anchagina katta hajmda bo'lib, u muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Romanning muqaddimasida turkiy qavmlarning yo'q bo'lib ketishigacha olib keladigan dahshatli qirg'in voqeasi aks ettirilgan. Xitoyning minglab askarlari so'nggi turkiy qabila aholisini shafqatsizlarcha o'ldiradi. Askarlar to'g'iz yoshli bola – Ilmoqning qo'l-oyoqlarini chopib tashlashlari ularning aslida kimligini ko'rsatib turibdi. Muqaddimada O'g'uzxon yashagan davr va undan ancha keyingi yillardagi turkiy xalqlarning ahvoli yoritilgan.

Asarning birinchi qismi to'rt fasldan iborat bo'lib, ular o'z sarlavhasiga ega. Unda O'g'uzxonning bolaligi, dushman yurtida asir sifatida yashashi, u yerdan qochib yurtiga kelishi, otasi bilan orasidagi bo'lib o'tgan nizolar va oxirida Tuman Tangriqutning fojiali o'limi voqealari bayon etilgan. O'g'uzxonning dushman yurtiga garov tariqasida yuborilishi, xoqon Tuman Ulug' Yovchilar yurtiga hujum qilsa, o'g'li Botur o'ldirilib yuborilishi ayonligini bilsa-da, u mamlakatga qarshi jangga kirishi – yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy to'qimadir. Biroq mazkur voqea asarning oxirigacha, tizimli yaratilishida, voqealar rivojining aniq hamda ishonarli chiqishida muhim rol o'ynagan.

Romanning ikkinchi qismi bevosida O'g'uzxonning jangovor faoliyati, ulkan saltanat tuzishdagi mardonavor harakatlari, buning natijasida tortgan azoblariga bag'ishlanadi. Mazkur qism besh fasldan iborat va ular voqealar rivojiga mos tarzda nomlangan. Ushbu qism asarning asosiy qismi hisoblanadi. Shu qismda boshqa qismlarga nisbatan O'g'uzxonning siymosi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Asarning uchinchi qismi O'g'uzxonning keksayishi, darvesh bilan hayot halsafasi haqidagi bo'lib o'tgan suhbatlari, o'g'illari haqidadir. Mazkur qism to'rt fasldan iborat bo'lib, unda asosan O'g'uzxonning o'g'illari haqidagi fikr yuritilgan.

O'g'uzxon bolalik paytlaridanoq harbiy ilmlarga juda qiziqqan. Mazkur obraz kuchli iroda sohibi sifatida talqin etiladi. Otasi Tuman Tangriqut o'g'lini yoqtirmaganligi sababli qo'shni mamlakatga garov tariqasida yuboradi. Dovyurak yigit dushman mamlakatdan sog'omon qaytib keladi. Unga oddiy dehqonning Rajo ismli qizi ko'mak beradi.

Mazkur asarda ota va o'g'il orasida bo'ladigan nizolar batafsil, aniq bayon qilingan. Tumanning o'z o'g'lini boshqa mamlakatga garov tariqasida yuborishi ota-o'g'il orasidagi nizoning kelib chiqishiga sabab bo'lgandi, Rajoning asirlikdan ozod qilinmaganligi bu nizoni yanada kuchaytirdi. O'g'uzxonning ikkinchi xotini – Kuntug'di xoqonga o'g'li unga qarshi uchushga tayyorlanayotganligi haqidagi yolg'on xabarni yetkazishi oxir-oqibat nizoning katta jangga aylanishiga olib keldi. "Ha, ha, sen Vatanning, xalqing uchun qurbon bo'lishing mumkin edi! Sening xaloskoring katta hurmatga loyiq", – deydi xoqon. Otasining tovushidagi loqayd, beparvo ohang shahzodaning badanini jimirlatib yubordi. Bu ohang ular bir-birlaridan naqadar yiroq, begona ekanliklarini ko'rsatib turardi[2]. Mazkur parchadan ko'rinib turibdiki, ota-o'g'il munosabatlari yaxshi bo'lmagan.

Tuman ukasi Kuzxonning qizi – Saqitni, undan so'ng keyingi ukasi Kunxonning qizi – Kumtug'dini O'g'uzxonning noroziligiga qaramay, nikohlab beradi. Otaning maqsadi o'g'lini taxtdan uzoqroq saqlash edi. Kuntug'dining O'g'uzxondan o'ch olish maqsadida uyushtirgan fitnasi ota-o'g'ilning xuddi dushmanlardek ayovsiz jangga kirishiga sabab bo'ladi. Mazkur jangda Tuman xoqon mag'lubiyatga uchradi, hamda o'zi ham halok bo'ldi. O'g'uzxon otasining roziligi bilan otliq qo'shin tuzgan edi. Bu qo'shin Og'uzxonga

barcha janglarda g'alabani qo'lga kiritishida yordam bergan. U otasining o'rniga taxtga o'tirgach, bazm uyushtiradi. Bazm haqida tarixnavis Hofiz Tanish Buxoriy shunday yozadi: "Osmon xumxona-yu, dengiz kosa bo'lganida ham, bazmdagi sharbatlar unga sig'mas edi. Baliq, ot, qo'y, qoramol go'shtidan shunchalar ko'p taom tayyorlanganki, uning xirmoni tog'-u adirlarga barobar kelgan..."[2]. Yozuvchining fikricha, ana shu misli ko'rilmagan bazm yetti iqlimda yangi, saodatli, ayni paytda qattiqo'l va qaysar hukmdor ulkan saltanat taxtiga chiqib, jahonga yuz tutganidan dalolat berardi. O'g'uzxon buyuk imperiya asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan.

U xoqon bo'lsa-da, taxt haqida ijobiy fikrda bo'lmagan, quyida keltirilgan fikrlari orqali uning hayot falsafasini bilib olish mumkin. "Hukmdorlik nima o'zi? Ilmmi, san'atmi yoinki tug'ma iqtidormi? Nahot, har bir saltanat ildizlari qon bilan sug'orilishi darkor bo'lsa... Otam hayotiga zomin bo'lgan, unga vafo qilmagan taxt menga vafo qilgaymi?"[2,62]

Asarning ba'zi o'rinlarida yuqoridagi kabi falsafiy fikrlar keltirilganki, natijada romanning g'oyaviy-badiiy qiymati yanada ortgan. Quyida keltirilgan fikrlarda inson zotigagina xos bo'lgan xarakter-xususiyatlar mahorat bilan aks ettirilgan: "Ey inson, sen aql-zakovatda qanchalar yuksak bo'lsang, tubanlik, xiyonat, makr-hiylada ham shu qadar buyuksan!". Mazkur parcha O'g'uzxonning xayolidan kechgan fikrlari bo'lib, undagi fikr butun insoniyatga dahldor.

Yozuvchi O'g'uzxonning ichki ma'naviy olami hamda jismoniy kuch-qudratini aks ettirishga alohida urg'u berganligi ayni haqiqat. U mard, shijoatli, vatanparvar, ona yurti sarhadlarini kengaytirish orqali kelajak avlod istiqbolini o'ylaydigan, kechirimli shaxs sifatida tavsiflanadi. U dushmanlari yuragiga g'ulg'ula solib, o'zining g'alabasini ta'minlaydigan ovozi o'q-yoy ixtiro qilgan. O'g'uzxon faqatgina shavkatli sarkarda emas, balki buyuk davlar arbobi ham edi. U fath etilgan o'lkalarni yolg'iz qilish kuchi bilan emas, aql-zakovat, oqilona siyosat bilan iroda qildirdi. Uning kechirimliliqi quyidagi voqealarda namoyon bo'ladi: unga xiyonat qilgan har ikkala xotinining xoiligini kechiradi, mag'lub bo'lgan Tunjut mamlakatini vayron qilmaydi, o'z vazifasini bajarmay, xoqoniga qarshi chiqqan Bilgaxonni avf etadi.

Adib uning farzandlariga bo'lgan otalik mehrini ham ko'rsatishga harakat qilgan. "Ota o'g'lining keng yelkalari, pahlavon kelbatiga zavqlanib boqar, unda o'zining navqironlik yillari shijoatini, sha'n-shukuhini ko'rardi. Juda ko'p saroy fitnalarini boshidan kechirib, ularning jabrini hamon tortayotgan ota o'g'lini ham shu g'avg'olar kutayotganligini o'ylaganida, juda diltang bo'lar, shunday paytlarda u o'g'li Kunxonni yoniga chaqirib, yurt tutish odobi haqida so'z ochar, pand-nasihat qilardi"[2]. Og'uzxon adolatli bo'lganligi uning quyidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo'ladi: "Oqilona siyosat, kuchli lashkar va mustahkam iqtisod xoqonlik kelajaini belgilaydi... Saltanatni ushlab turguvchi ustunlardan yana biri – adolatdur"[2]. O'g'uzxon adolat ustuvorligiga qattiq rioya etgan. Uning taxt vorisi Kunxon uchun bu o'mak bo'lishi tabiiy hol, albatta.

Adib obrazlarning shaxsiy jihatlarini yoritishda bir yoqlamalikdan yiroqlashadi. U Og'uzxonning ijobiy xarakter-xususiyatlari bilan bir qatorda, uning insonlarga xos bo'lgan ba'zi salbiy jihatlarini ham asarda yoritib beradi. Xususan, uning Xan podshohiga yuborgan maktubida kalondumog'lik alomatlari mavjud edi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, O'g'uzxon yurt osoyishtaligi, mustaqilligi yo'lida harakat qilganida hech kimni hatto yaqinlarini ham ayamagan. Tarixchi olim Qahramon Rajabovning fikriga ko'ra, miloddan avvalgi 240-210-yillarda hukmronlik qilgan Tuman Tangriqut hamda O'g'uzxon orasida 210-yilda jiddatli jang bo'lib o'tadi. Bu

jangda O'g'uzxon g'olib bo'lib, vafot etgan otasining o'rniga taxtga o'tiradi hamda yangi davlat barpo etadi. Tuman Tangriqutga o'z o'g'lining qarshi chiqishiga asosiy sabab hokimiyatni egallab olish emas, balki tashqi dushman ta'siriga berilib el-ulus manfaati va xalq tashvishini unutib qo'ygan keksa hukmdorni oradan ko'tarish edi[1].

Boshqa tarixiy manbalarda, xususan, Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami" nomli kitobida O'g'uzxonning taxtga o'tirishi biroz boshqacharoq tarzda bayon qilingan. "O'g'uzxon ukasi taxtga o'tirishidan qo'rqib, ov paytida otasini, o'gay onasi hamda aka-ukalarini o'ldirib o'zini xoqon deb e'lon qiladi".

Jo'ra Fozil o'z otasiga qarshi jang qilishga majbur bo'lgan O'g'uzxon ruhiyatini, ichki ma'naviy olamini yoritishga, uning tuyg'ularini aks ettirishga alohida e'tibor qaratadi. Ota va farzand o'rtasida jang muqarrar bo'lib turgan bir paytda O'g'uzxon juda bezotalanardi. "Xo'sh, qilichimni tashlab, otam poyiga yiqilsam, u meni kechirarmikan? Yo'q, aslo kechirmagay. U g'azab otiga mingach, kechirishga qodir

emas... Agar uning yuragida menga nisbatan zarracha mehr bo'lganida, g'animlari saroyiga garov tariqasida yubormas edi-ku!.. Bu sharmandali jangdan o'zga choram bor mening? Nahot, qismatinga padarkushlik bitilgan bo'lsa?.."[2] Mazkur parcha O'g'uzxonning ko'nglidan kechayotgan fikrlari bo'lib, bu o'ylar uning otasiga qarshi jang qilishni istamaganini bildiradi. Aybi yo'q bo'lsa-da, jangni to'xtatish uchun otasidan kechirim so'rashga ham tayyor edi, zero, O'g'uzxon Kuntug'di aytganidek, shakkoklik botqog'iga botmagan edi. Oradan qancha vaqt o'tsa-da, padarkushlik tamg'asini bosgan o'sha qonli jang ta'siridan, ta'qibidan Og'uzxon xalos bo'lolmagani asarda o'z ifodasini topgan.

Xulosa. Jo'ra Fozil ijodi haqida fikr yuritilganda aytish kerakki, yozuvchi tarixiy asarlari o'zbek adabiyotshunosligida juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy asarlarda notinch, ziddiyatli davrlar o'zining butun drammatizmi bilan tasvirlangan. Adib asarlarining barchasida ramziylik mavjud. Chunki har bir davrning o'z muammosi, fojiasi bo'ladi. Inson faqatgina to'g'ri yo'lni tanlay bilmog'i, o'zidan, o'zligidan kechmasligi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Rajabov. Q. "Turon tarixining badiiy kecmishi". Jo'ra Fozil. Ayriqliq ostonasi. Tarixiy roman. Toshkent: "Sharq", 2006. – B.286-287.
2. Fozilov J. Ayriqliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: –T.: Sharq, 2006.
3. Latipova S. TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING "AYRILIQ OSTONASI" ROMANI ASOSIDA) //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 58-61.
4. Latipova S. JO 'RA FOZIL IJODIDA XALQ MAQOLLARINING O 'RNI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 18. – C. 92-96.
5. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING "O 'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.
6. Рустамова Г. ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон кизи Бухоро давлат университети таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021.
7. Jo'rayeva L. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 124-127.
8. Avazova N., Jalilova O. ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 20-24.
9. Fozilov J. Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni: Roman, hikoyalar: – T.: Sharq, 2015. – 320 b
10. Jabborova M. MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 48-52.



Раъно МАДЖИДОВА,

доктор филологических наук, профессор Узбекского государственного университета мировых языков

По отзывам профессора УзМУ, д.ф.н Курбановой М.

ЭТИЧЕСКОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ОЦЕНОЧНОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация

Данная статья посвящена актуальной проблеме современного языкознания – проблеме осмысления и восприятия этических и эстетических ценностей на материале пословиц узбекского и русского языков, которые связаны со способностью человека к глубоким, сильным, ярким эмоциональным переживаниям, умением воспринимать множество оттенков настроений и чувств. В статье дается классификация этических и эстетических ценностей, анализируются и описываются пословицы разносистемных языков. Понятие оценки в исследуемых языках и культурах имеет общие черты. Оценочные значения антропоцентрических пословиц исследуемых разносистемных языков являются биполярными. В пословице характеризуется характер, поведение, действие или с оценкой плюс или оценкой минус.

Ключевые слова: пословица, аксиология, этическая оценка, эстетическая оценка, оценочная шкала, положительная оценка, отрицательная оценка, антропоцентрические пословицы.

ANTROPOTSENTRIK MAQOLLARDA INSON HAQIDAGI AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLAR TASNIFI

Annatsiya

Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammosi – o‘zbek va rus tillari maqollari asosida insonning chuqur, kuchli, jonli emotsionallik qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy va estetik qadriyatlarni tushunish va idrok etish muammosiga bag‘ishlangan. tajribalar, kayfiyat va his-tuyg‘ularning ko‘p soylarini idrok etish qobiliyati. Maqolada axloqiy va estetik qadriyatlar tasnifi berilgan, turli tillar tizimidagi maqollar tahlil qilinadi va tavsiflanadi. Organilayotgan tillar va madaniyatlarda baholash tushunchasi umumiy xususiyatlarga ega. O‘rganilayotgan ko‘p tizimli tillarda antropotsentrik maqollarning taxminiy ma‘nolari bipolyardir. Maqol xarakter, xatti-harakat, harakatni ortiqcha yoki minus bahosi bilan tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: maqol, aksiologiya, axloqiy baholash, estetik baholash, reyting shkalasi, ijobiy baholash, salbiy baholash, antropotsentrik maqollar.

ETHICAL AND AESTHETIC EVALUATIVE UNDERSTANDING OF HUMAN IN ANTHROPOCENTRIC PROVERBS

Annotation

This article is devoted to an urgent problem of modern linguistics – the problem of understanding and perceiving ethical and aesthetic values on the basis of proverbs of the Uzbek and Russian languages, which are associated with a person’s ability to deep, strong, vivid emotional experiences, the ability to perceive many shades of moods and feelings. The article gives a classification of ethical and aesthetic values, analyzes and describes proverbs of different systems of languages. The concept of evaluation in the languages and cultures studied has common features. The estimated meanings of anthropocentric proverbs in the studied multisystem languages are bipolar. The proverb characterizes character, behavior, action with either a plus or a minus rating.

Key words: proverb, axiology, ethical assessment, aesthetic assessment, rating scale, positive assessment, negative assessment, anthropocentric proverbs.

Введение. При оценке человека в исследуемых пословицах учитываются этическая, эстетическая, умственно-интеллектуальная, прагматическая, валеологическая, эмоциональная, нормативная стороны жизнедеятельности человека. Естественно, что оценка человека при этом имеет положительный или отрицательный характер.

Этическая оценка, содержащаяся в языковых единицах, выражает общепринятые в лингвокультурной общности морально-этические нормы поведения членов социума. Этическая оценка также представлена и в пословичном фонде узбекского и русского языков.

Этической оценке человека, его качеств, свойств, поведения, образа жизни и т.п. в антропоцентрических пословицах исследуемых языков свойственна биполярность оценочных значений, которая Н.А. Арутюнова соотносит с понятиями моральный – аморальный, нравственный – безнравственный, добродетельный – порочный [1].

Э.Д. Доржиева в этой связи пишет: «В традиции моральной философии слова «добродетель» и «порок» имеют широкие значения положительных и отрицательных качеств (моральных качеств) личности. Честность, щедрость, великодушие, сострадательность и т.п. – добродетели. Лживость, скаредность, мелочность, черствость и т.п. – пороки» [4]. Как видим, ценностное осмысление действительности человеком происходит посредством изначально противоположных этических категорий добродетель и порок, предопределяющих положительность или отрицательность оценки объекта описания.

Добродетель есть соблюдение индивидом морально-этических норм во всех сферах своей жизнедеятельности. Только при условии, что человек будет руководствоваться в своих действиях моральными принципами, он может считаться добродетельным, ибо «в этическом плане в концепции «добродетель» (и как противоположности – «порок») подчеркивается важный

аспект нравственности, которая связана с формами организации, или регуляции, поведения» [4]. В противном случае человек будет признан в обществе, в котором он находится, порочным.

Следовательно, порочность – это нарушение индивидом общественных морально-этических норм, игнорирование им моральных принципов. В результате отклонения от таких добродетелей, как доброта, искренность, честность, справедливость, благородство, великодушие, милосердие, щедрость, гостеприимство, умеренность и др., человек становится злым, лживым, жадным, скупым, трусом, предателем, несправедливым, Таблица 1

Этическая оценка человека в антропоцентрических пословицах узбекского и русского языков

Качества человека	В узбекском языке	В русском языке
Положительная оценка		
доброта	Бахши бор жойда яхши бор.	Злой плачет от зависти, а добрый от жалости.
искренность	Юзи очикнинг тили узун. Кўнгли очикнинг ёли очик.	Хоть мошна пуста, да душа чиста.
честность	Ёлгончининг ёнидан ўтма, ростгўйининг ёнидан кетма.	Честному мужу честен и поклон
справедливость	Одил киши ойдай, оқиб турган сойдай.	Справедливый человек нигде не пропадет.
благородство	Гадога салом берма, динор бер.	Благородный человек не помнит старого зла.
верность	Ваъдага вафо – мардининг иши, ваъдасиз – субутсиз киши.	Верный друг – крепкая защита.
великодушие	Ҳимматли кўкка кўтарилар, ҳимматсиз ерга кўмилар. Ҳимматли ҳимматидан топар.	Пожалеешь чужое – бог даст свое.
милосердие	Жоҳиллар камон бўлар, мехрлилар – чаман.	Акулина Федосевна до чужих ребят милосердна.
щедрость	Саҳийнинг ўнг кўли берар, чап кўх билмас.	С моей руки хоть куль муки.
гостеприимство	Мехмон – азиз, мезбон – лазиз. Мехмон – атойи худо.	Гостю в переднем углу место. Гостю – почет, хозяину – честь.
умеренность	Мусулмончилик – аста-секинчилик.	Умеренность – мать здоровья.
Отрицательная оценка		
жадность	Бахил авлиё бўлмас, авлиё бахил бўлмас.	Скупой жадному сказал: скупость – не глупость, а та же добыча.
скупость	Кизганчқдан ортар, мечкайдан ортмас.	У скупого и в крещенье льду не выпросишь.
лживость	Ёлгончи ўликни гувоҳ тортар.	У лгуна и свидетель под боком.
несправедливость	Ҳақ ўз дўшисининг тагида.	Бог любит праведника, а судья – ябедника.
трусость	Кўрқокда уят бўлмас.	На трусливого и уж – змея.
предательство	Бевафонинг асли кўнгли бегона, Бевафога кўнгли кўйган девона.	Змея один раз в год меняет кожу, а предатель – каждый день.
легкомысленное поведение	Беҳаёлар бел боғласа, хаёлилар уйга кирар.	Юность легкомысленна, старость осторожна.
неблагодарность	Сигир сийлагани билмас, Ёмон – сийлагани.	Все бондаря, да немногих благодарят.
гордыня	Манман камтардан энгилар, тўғри эл ичиди танилар.	Гордым быть — глупым слыть.
зависть	Таклидчига толе ёр, Ҳасадчига – халокат.	Завистливый по чужому счастью сохнет.
вождедение/ похотливость	Кўшнининг хотини киз кўринар. Бузуки қариса ҳам, ғамзаси қаримас.	Судьбу ломают женщины, которых ты хочешь.
гнев	Жохил ўлфат – бошинга кулфат.	Гневлив с горшками не ездит.
обжорство	Очкўзи тулрок тўйдирар.	Люблю дружка: укусит пирожка – да в запяточку.

Необходимо отметить, что при этической оценке человека в антропоцентрических пословицах узбекского русского языков больше обращается внимание на доброту, верность, щедрость, гостеприимство и др.

Эстетическая оценка как «способ установления эстетической ценности к.-л. объекта, осознаваемый результат эстетического восприятия, обычно фиксируемый в суждениях типа «Это красиво!», «Это уродливо!» и т. п.» [10] неразрывна связана с сенсорно-вкусовым удовольствием, получаемым индивидом при эстетическом восприятии объекта.

В основе эстетической оценки человека лежит такая ценность, как красота [2]. Красота человека в философской трактовке есть совпадение объективного и субъективного восприятия индивидом проявления прекрасного в человеке, которое представляет собой сплав таких человеческих качеств, как красота, доброта и правдивость.

Эстетическая оценка объективного восприятия человека основана на признании его симметричных, пропорциональных и гармоничных физиологических данных, в то время как при субъективном восприятии сказываются индивидуальные эстетические предпочтения оценивающего. Как видим, одна и та же эстетическая категория красоты человека может иметь противоположную оценку при несопадении ее объективного и субъективного восприятия.

неблагодарным, гордым, завистливым, гневным, похотливым и т.п.

Этическая оценка человека, его качеств, свойств, поведения, образа жизни и т.п. в антропоцентрических пословицах узбекского и русского языков восходит к одобрению таких качеств человека, как доброта, искренность, честность, благородство, великодушие, милосердие, отзывчивость, щедрость, гостеприимство и др., в то же время порицаются жадность, скупость, лживость, трусость, предательство, легкомысленное поведение, неблагодарность [см. таблицу 1].

Собственно этим, на наш взгляд и обосновывается то положение, на которое указывает в своей диссертационной работе Е.В. Мякишева: «Главная особенность стереотипных представлений о красоте – возможность одновременного функционирования противоположных друг другу стереотипов: Быть худым – это красиво. – Быть худым – это некрасиво; Высокий рост – это красиво. – Высокий рост – это некрасиво; Красота – свойство молодости. – У каждого возраста своя красота» [7].

На противоположные смыслы значений оценки красоты внешности человека указывает и Т.Г. Орлова: ««наружность обманчива»: «по внешнему виду человека нельзя судить о внутренних качествах человека», «о человеке судят не по внешнему виду, а по делам, поступкам», «красота преходяща», «не в красоте ценность человека», «каждый понимает красоту по-своему», и, наоборот, «по внешнему виду можно судить о внутренних качествах», «лицо отражает внутренний мир человека», «внешность – рекомендательное письмо», «за красивой внешностью скрывается красивой внутренний мир», «у самых совершенных созданий есть недостатки», «полюби человека с недостатками», «не в красоте счастье»» [8]. В данном случае речь идет не столько и противоположном восприятии красоты внешности человека разными индивидами, сколько о представленности противоречивой ее оценки в паремиях народов.

Противоположность эстетической оценки проявляется и при характеристике красоты человека с точки зрения ее естественности / искусственности. Природная красота природы противопоставляется искусственной, созданной самим человеком. Противопоставляются также красота божественная и красота земная.

Brunswick black	Black pigment (qora tus)
Chrome black	Colour produced from black dye (qora bo'yodan ishlab chiqarilgan rang)
Ivory black	A black pigment with a brown tinge originally made from carbonised bones (Jigarrang tusli qora pigment dastlab karbonlangan suyaklardan qilingan)

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rish mumkinki, bir rangni turli obyekt, buyum yoki hidisa bilan taqqoslash qiyos orqali o'quvchida o'sha rangga nisbatan tasavvur paydo bo'ladi. Shunday tarzda asosiy rang va uni ifodalovchi ranglar bilan lug'at tarkibi boyitilgan. *Blue* – ko'k rangini oladigan bo'lsak, bu yerda ham uni ifoda etuvchi ko'plab ma'nolarni topishimiz mumkin.

Amethyst – *Violet-purple or purplish-blue (particularly in heraldry)* – binafsharang yoki binafsharangsimon ko'k rang; *Antwerp blue* – *A greenish blue* – yashilsimon ko'k rang; *Aqua blue* – *Light greenish blue* – yorqin yashilsimon ko'k; *Azulin* – *greyish-blue* – kulrangsimon ko'k; *Azurine* – *The colour blue greyish blue* – kulrangsimon ko'k rang; *Baby blue* – *A pale blue*. *'Baby blues' is a slang term for 'eyes'* – Och ko'k, ko'zlar uchun slang, ya'ni metafora ma'nosida ham ishlatiladi; *Berlin blue* – *lighter sapphire blue* – Yorqinroq safir ko'k qatorlarni yana davom ettirish mumkin, chunki ranglar lug'atida ko'k, ya'ni "blue"ni ifodalaydigan 200 ga yaqin so'z va so'z birikmalarini topishimiz mumkin. Bu berilgan so'z va so'z birikmalari o'zaro uyg'un holda ma'lum bir rang haqida ma'lumot beradi.

Ranglar lug'atida **Brown** – jigarrang so'zini ham yuqorida takidlab o'tgan ranglar qatori 100dan ortiq ekvivalenti mavjud bo'lib, bu so'zlar jigarrang va tus jihatidan unga yondosh bo'lgan, ya'ni uni ifodalaydigan so'zlar bo'lib, jigarrangning turfa turlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan:

Algerian – *A yellowish brown* – sarg'ish jigarrang; *Amadou brown* – *A dark reddish-brown* – to'q qizg'imir jigarrang; *Cassel brown* – *A brown pigment made from lignite and named after the town of the same name now called Kasse* – Jigarrang tus Kassel nomli shahar nomiga qo'yilgan; *Cedar* – *A reddish-brown colour* – qizg'ish jigarrang; *Charcoal brown* – *A dark brown* – to'q jigarrang; *Chestnut* – *Reddish-brown after the name of the shell of the chestnut* – Kashtan yong'og'i nomiga quyilgan to'q qizil rangli jigarrang; *French beige* – *A light brown – och jigarrang*; *Golden brown* – *A rich yellowy-brown* – tiniq sarg'imir jigarrang; *Grain* – *A tan colour* – sarg'ish jigarrang[5].

Ranglar lug'ati shu tarzda yondosh va ekvivalent bo'lgan so'zlar bilan boyib boradi. Navbatda yashil rangni, ya'ni *green* rangini izohlaydigan bo'lsak, unda ham ko'plab ekvivalentlar va iboralarni uchratish mumkin: *Acid green* – *A bright gree* – yorqin yashil; *Ackermann's Green* – *A yellowish green* – sarg'imir yashil; *Almond green* – *Greyish green* – kulrangsimon yashil; *Alp green* – *Yellow-green* – sarg'imir yashil; *Apple-green* – *A pale green* – och yashil; *Aquagreen* – *A light bluish green* – tiniq kokimtir yashil; *Epinard* – *The dark green colour of the vegetable, spinach* – *ismaloq rangidagi to'q yashil rang*; *Evergreen* – *A yellowish-green* – sarg'imir yashil; *Feuille, green* – *A light green colour* – tiniq yashil rang[5].

Shuningdek, rang lug'atida kulrang rangi ham 200 dan ortiq ma'nodosh so'zlar bilan ifodalanishi bilan ajralib turadi, bulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

Field grey – *The grey colour of military uniforms particularly those worn the German infant* – nemis harbiylari kiygan forma rangiga qo'yilgan kulrang rang; *French grey* – *A bluish grey* – ko'kimtir kulrang; *Gainsboro* – *A light grey colour-och kulrang*; *Granite* – *A purplish grey* – binafsharangsimon kulrang; *Graphite gray* – *A dark metallic*

grey – to'q metallga mos kulrang; *Greystone* – *An olive grey* – zaytun rangidagi kulrang; *Gridelin* – *Violet grey*; *greyish-violet* – siyohrangsimon kulrang[5].

"A dictionary of color" ranglar lug'atida *Orange* – apelsinrang ham o'zining keng ko'lamlil sinomnamlari va ekvivalentlariga ega. Garchi u asosiy ranglar qatorida bo'lmasa-da, lekin uni tavsiflovchi ko'plab so'zlar berib o'tilgan. Masalan:

Burnt orange – *A reddish orange colour* – qizg'sh apelsinrang; *Cadmium orange* – *A bright orange made from cadmium sulphide* – kaliy sulfiddan tayyorlangan yorqin apelsin rang; *Capucine* – *A dark yellowy orange* – to'q sarg'ish yashil rang; *Carrot orange* – *The yellowish-orange colour of the carrot previously referred to as carrot red* – sarg'imir apelsinrang sabzi rangiga o'xshash (shuning uchun sabzi rang deyilgan); *Corabell* *A light orange coral colour tinted with crimson* – qip-qizil tus beradigan to'q apelsinrang; *Fiesta* – *A reddish shade of orange* – qizg'ish tusli apelsinrang; *Helio* – *A bright orange* – yorqin apelsinrang; *Hot orange* – *An intense orange colour* – tiniq apelsinrang[5].

Mazkur lug'atda *Red* (qizil) rangining ham quyidagi ekvivalentlari mavjud: *Oxheart* – *A deep red* – o'tkir (o'ta to'q) qizil rang; *Pale violet red* – och siyohrangsimon qizil; *Pantone Red* – *Tomato red* – pomidor kabi qizil; *Paris red* – *A red colour-oddiy qizil rang*; *Peony-red* – *A dark red* – to'q qizil rang; *Permanent rose* – *A pinkish-red* – pushtisimon qizil rang; *Pigeon's-blood* – *A pinkish-red* – pushtisimon qizil[5].

Ranglar lug'atida asosiy rang nomlarining paradigmatik munosabatlari bor bo'lib, lug'at tarkibi bu kabi nominativlar hisobiga borib borgan, garchi ushbu so'zlar ingliz og'zaki nutqida doim qo'llanmasa ham, so'z va lug'at boyligini oshirishda, ranglar olamini chuqurroq tavsiflashda mazkur CO(coloronim)lar katta yordam beradi. Shu qatorda, *White* (oq rang) ham bir qancha paradigmatdoshlariga ega.

Bone white – *A white pigment used since the Middle Ages consisting in the main of calcium phosphate* – o'rta asrlarga tegishli bo'lib, kalsiy fosfat rangi, suyak rangidagi oq; *Chalk* – *A grey white* – kulrang oq; *Chinese white* – *A white pigment prepared from zinc oxide and possibly so named after the fine porcelain from China. This was the first permanent opaque white watercolour* – sink oksididan tayyorlangan oq pigment, ehtimol, Xitoydan kelgan nozik chinni nomi bilan atalgan; *Creamy-white* – *A shade that settled at some indefinable point between yellow and creamy-white* – sariq va qaymoq rang o'rtasidagi rang; *Feldspar* – *A creamy or yellowy white* – kremsimon sarg'ish oq; *Silver-white* or *lead white* – *Used by the ancient Chinese, Egyptians and Greeks and the only white pigment until the 1830* – qadimgi xitoylar, misrlklar va yunonlar tomonidan 1830-yillarga qadar ishlatilgan yagona oq pigment[5].

Shu o'rinda ayrim ranglar va ularning dastlab paydo bo'lgan davri haqida ma'lumot berib o'tamiz. Bunda har bir berilgan rang va uning ekvivalenti bo'lgan nominativlarning tilda, qo'llanishda paydo bo'lishi ma'lum bir yil bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin[7].

Xulosa va takliflar. Ingliz tilidagi rang lug'atlarida rang atamalaridan foydalanish odatda ingliz tilida tasvirlanishi mumkin bo'lgan ranglar va turlarning keng doirasini tartibga solish va aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu lug'atlarda ko'pincha asosiy ranglar, ikkinchi darajali ranglar, uchinchi

darajali ranglar va boshqa turli yondosh bo'lgan tuslar va ranglar mavjud.

Rangli lug'atlar ham ko'pincha rang nomlarining kelib chiqishi va etimologiyasi, shuningdek, san'at, dizayn, moda va boshqa sohalarda turli xil ranglarning umumiy qo'llanilishi va birlashmalari haqida ma'lumot beradi.

Umuman olganda, rangl lug'atlari o'zlarining yozuvlarida yoki muloqotlarida ranglarni to'g'ri ta'riflash va aniqlashni istagan nafaqat lingvist balki har bir kishi uchun, shuningdek, muntazam ravishda rang bilan ishlaydigan rassomlar, dizaynerlar va boshqa mutaxassislar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Василевич А.П. и др. Цвет и названия цвета в русском языке. – Москва: URSS, 2005. – 216 с.
2. Воробьев Г.Г. Информатика цвета // НТИ. Серия 2: Информационные процессы и системы. – 1998. – № 12. – С. 1–14.
3. Козлова Н.Н. Цветовая картина мира в языке / Н.Н. Козлова // Ученые записки Забайкальского государственного университета. Серия: Филология, история, востоковедение. - 2010. - №3. - С. 82-88.
4. Ian Peterson "A dictionary of color" Thorogood Publishing– London.2004.p3
5. Ian Peterson "A dictionary of color" Thorogood Publishing– London.2004.
6. Maerz M. R. Pol, Dictionary of color, Nyu-York, MakGrou Xill, 1953 p 48
7. Steintal A. English colour terms in context.Umea university-2002 p 263
8. Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // The history of development of fine. № 1, 2018. – С.35-40



Dilrabo HAKIMJONOVA,
ToshDO‘TAU, O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi
E-mail: xakimovadilrabo420@gmail.com

ToshDO‘TAU f.f.d, professor U. Jo‘raqulov taqrizi asosida

SENI TOPMOQ BASE MUSHKILDURUR (BIR BAYT TAHLILI)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Navoiyning “Zihi husnung zuhuridin” misrasi bilan boshlanuvchi hamd g‘azali shohbayti tahlilga tortilgan. Tahlil asosida talqin va takliflar ilgari surilgan. G‘azalni yozishda muallif “asl shar‘iy ilmlar”, ya‘ni Qur‘oni Karim, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga tayanganligi borasida ayrim mulohazalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ismi A‘zam, asl shar‘iy ilmlar, kanzi maxfiy, vahdat ul-vujud, ilohiy mazhar, g‘azal, shohbayt, tahlil, talqin.

IT’S TOO HARD TO FIND YOU (ONE STANZA ANALYSIS)

Annotation

This article analyzes Navoi’s ghazal poem of praise, which begins with the verse “Zihi husnung zuhuridin”. Based on the analysis, interpretations and proposals are put forward. In writing the ghazal, the author relied on the “original Shari’i sciences”, that is, the Holy Qur’an and the Sunnah of the Messenger of Allah, may God bless him and grant him peace.

Key words: Ismi Azam, original Shari’i sciences, secret kanzi, vahdat ul-wujud, divine mazhar, ghazal, shahbayt, analysis, interpretation.

ТЕБЯ СЛИШКОМ ТРУДНО НАЙТИ (АНАЛИЗ ОДНОЙ СТРОФЫ)

Аннотация

В данной статье анализируется хвалебная газель Навои, которая начинается стихом «Зихи хуснунг зухуридин». На основе анализа выдвигаются интерпретации и предложения. При написании газели автор опирался на «изначальные шариатские науки», то есть Священный Коран и Сунну Посланника Аллаха, да благословит его Господь и дарует ему мир.

Ключевые слова: Исми Азам, оригинальные шариатские науки, тайный канзи, вахдат уль-вуджуд, божественный мажар, газель, шахбайт, анализ, интерпретация.

Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslig‘ osonkim,
Erur paydoliq‘ing pinhon, vale pinhonlig‘ing paydo.

Kirish. Mazkur bayt Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan “Zihi husnung zuhuridin...” misrasi bilan boshlanuvchi hamd g‘azali shohbaytidir. G‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. (V - - - V - - - V - - - V - - -) Ushbu maqolada g‘azalning shakl tomoniga emas, ma‘no qatlamiga e‘tibor qaratilib, ilgari surilgan g‘oyaning mazmun ko‘lamini chuqurroq anglash maqsadida botiniy qatlam har jihatdan tahlilga tortilgan. G‘azalning umumiy g‘oyasi yuqorida keltirib o‘tgan shohbaytimiz orqali ochib berilgan. Muallifning badiiy mahorati ham mazkur g‘azal g‘oyasining mag‘zini aynan shohbaytda ifoda etganidir. Navoiy hech bir syujet, obraz, mayda detallar, hatto ramzlarni ham shunchaki keltirmaydi. Keltirishdan ko‘zlagan ma‘lum maqsadi bo‘ladi. Asarlarini yozishda esa, asosan, “asl shar‘iy ilmlar”, ya‘ni Qur‘oni karim, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga tayangan. G‘azalning turli olimlar, navoiyshunoslar tomonidan qilingan bir qancha sharh va tahlillari mavjud.

Najmiddin Komilov Navoiy g‘azallarini sharhlashda, xususan, mazkur g‘azal sharhida uch usuldan foydalanadi:

1. Asar tilidagi hozirgi kitobxonga tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini berish.

2. Baytlarning nasriy bayonini taqdim etish.

3. G‘azalning umumiy g‘oyasi, mazmun-ma‘nosi, badiiy xususiyatlari ustida mulohaza yuritish.

Bu g‘azal devondagi birinchi g‘azalning bevosita davomidir. Birinchi g‘azalda ifodalangan moddiylik va

ilohiylikning birligi (vahdati) haqidagi fikr ikkinchi g‘azalda, aytish mumkinki, misollar bilan tushuntirilgan. Ya‘ni Alloh tajallisi borliqni qamrab olgani, harakatga keltirib turishi, jumladan, inson zoti, uni o‘rab olgan muhit, hayotning balqib, yashnab turishi, tovlanishlari, itilish va talpinishlar, yaralish va buzilishlar, muhabbatning uzilmas torlari-yu, azob-nashidasi – hammasi shu Tajalliyot zuhuridan ekanligi tasvirlanadi. Ammo buni hamma ham idrok etmaydi, vahdat ul-vujudning bu sirini anglagan odam, hayot ma‘nosi, insoniylik ma‘nosini chuqurroq anglab yetadi.[5]

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov esa: “Mazkur baytda “ilk syujet”ga bevosita bog‘liq bo‘lgan konflikt bor. Ya‘ni Navoiy talqinida inson umrining mazmuni Yaratganni topgani yoki topmaganiga qarab belgilanadi. Dunyo hayotida o‘ynab-kulib, yengil-yelpi, nafsga yoqadigan umr kechirib o‘tishdan osoni yo‘q. Chin inson a‘moliga amal qilib yashash (oshiq), bira to‘la shayton va nafs (raqib) nayranglariga qarshi tura olish, Yaratgan (Yor)ni topib(yodda tutib) yashash esa o‘ta mushkul”, - deydi.[3]

Tahlil va natijalar. Shohbayt tahlili orqali Navoiyning badiiy mahoratini ochib berishga harakat qilamiz:

1. Shoir butun boshli koinotni yaratgan Zotning Az-Zohir hamda Al-Batin ismlari, shu bilan birga Ismi A‘zamga yashirilgan qudratning sir-u sinoatini ikki misra orqali ifoda etadi. Az-Zohir – borligi, mavjudligi, yakka-yu yolg‘izligi ayon bo‘lgan Buyuk Zot.[2] Al-Batin – O‘zi mavjud, lekin sezgi vositalarimizdan maxfiy Zot.[2] Yaratganning Al-Batin

ismida yashiringan sifatlar Uning paydoli pinhon, ushbu pinhonlik tufaylik Uni topmoqlik mushkul ish ekanligi, Az-Zohir ismiga berkitilgan sifatlar esa pinhonligining O'zi paydo ekanligi, ya'ni Yaratganning har bir yaratig'ida Uning zuhurini topish mumkinligini ko'rsatadi. Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda: "Oliy muhabbat obyekti Mutlaq Jamol barokatidir".[4] Shuningdek, yashirinligining o'zi mavjudligining, mukammalligining, cheksiz qudrat sohibi ekanligining go'zal isbotidir. Zero, pinholigining oshkorligi olamni yo'qdan bor etganligida, jumla xilqatni o'lehov-la yaratganligidadir.

2. Mazkur baytda shoir "Kanzi maxfiy"ning sirini oshkor etadi, ya'ni Yaratgan shunday marhamat qiladi: "Men yashirin xazina edim, O'zimni tanitmoq uchun maxluqotni yaratdim". ("Ruhul bayon" tafsiri)[6] Yaratilgan jamiki borliq, barcha maxluqot va mavjudotda Yaratuvchining "jilva"si namoyon bo'ladi, chunki borliq, jumla yaratig'ida Uning zuhuri mavjud. "Kanzi maxfiy"ning siri ham ayni shudir.

Olam hanuz sirning oshkor bo'lmagan xazinasini edi. Kanzi maxfiyning zohir bo'lishi, yo'qlikning pardasini ko'tardi. Xazinaning ochilishi sirni bo'lishish bo'ldi. Sir mahram edi, o'zini yashirin tutgan edi.

Yashirin xazina azal asrorini ochishni, sir pardasini tushirishni, marhamiyat chimmatini ko'tarishni istadi. Xohladiki, bilinsin, xohladiki, ko'rinsin.

Marhamiyat "Alif... Lom... Mim..." deb, boshqalarga mahramlik uchun yo'l ochdi. Sir ochiqlikka chiqdi. Xazina o'zini ming bir eshik bilan ochdi. Har eshikdan sirlar oqib chiqaverdi...

Har sir o'z sirini so'zladi:

"Alif... Lom... Mim..."

Har eshikdan ming bir yo'l bilan kirish boshlandi. Har yo'lning boshida bir ishora bor edi.[6]

3. Shuningdek, shoir mazkur bayt orqali tana ruh bilan birga jismdan ham iborat ekan, bu dunyoda Yaratganni topmoqlik, Uning jilvasidan bahramand bo'lmoqlik mushkul ish ekanligi, jismning bunga bardosh bera olmasligi haqidagi ulkan haqiqatni keltirib o'tadi. Zero, A'rof surasida: "Muso Biz belgilagan vaqtda (Tur tog'iga) kelgach, u bilan Robbi bevosita gaplashdi. Muso: "Robbim! (O'zingni) menga ko'rsatgin, Senga bir nazar qilay!" - dedi. (Alloh): "Meni ko'ra olmaysan. Lekin (ana u) toqqa (bir) boq! (Agar Men unga bir nazar solganimda toqat qilib) o'z o'rnida tura olsa, sen ham meni ko'rasan", - dedi. Robbi toqqa tajalliy (andak bir ko'rinish) qilgan edi, uni maydalab tashladi. Muso (bundan ta'sirlanib) behush holda yiqildi. Hushiga kelgach dedi: "Senga tasbeh ayturman, Senga tavba qildim va men mo'minlarning birinchisi (peshvosi) durman". "Ey Muso! Men seni odamlar uzra risolalarim (Tavrot bitiklari) va gaplashganim bilan mumtoz (imtiyozli) etdim. Bas, senga berganimni (qabul etib) ol va shukr qiluvchilardan bo'lg'in!" - dedi (Alloh). (A'rof, 143-144)[1] Shak-shubhasiz, Navoiy mazkur ikki misrada yuqoridagi ikki oyat haqiqatini qalamga olgan. "Ulug' Tangri toqqa parda ortidan tajalliy etadi. Shuning uchun to yam-yashil bo'ladi, gullarga to'ladi, bezanadi. Holbuki, pardasiz tajalliy etsa, tog' ost-ust bo'ladi", - deydi Rumi hazratlari.

4. Shoir Buyuk qudrat Sohibi "yashirinligining oshkorligi" Tajallining borliqda namoyon bo'lgan zuhuridan ekanligini tushuntiradi. Shuningdek, "Mashriq ham, Mag'rib ham Allohnikidir. Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o'sha tomonda Allohning "yuzi" mavjuddir". (Baqara, 115)[1] oyatining hikmatini go'zal usulda ifoda etadi. Dunyoga kelishning asl muddaosi: o'zlikni anglash, o'zlikni anglash orqali o'zini tushunish, o'zini tushunish orqali Haqni topish, Haqni topish orqali Haqiqatga erishish ekanligini uqtirarkan,

avvalo, odamzodni "Vahdat ul-vujud"ning sirini anglamoqqa chorlaydi.

5. Navoiy Yaratgan "pinholigining paydoli" haqida fikr yuritarkan, shohbaytdan keyingi baytlarda Laylining yuzida Buyuk qudrat sohibi "jilva"si, Shirinning labida Uning kalomi namoyon bo'lmaganida edi Majnun jazba holatiga tushmagan, Farhodning ko'zlaridan oqqan yosh esa qattiq toshni la'lga aylantirmagan bo'lar edi, deydi. Zero, Shirin va Laylining chehrasida "Ilohiy mazhar" mavjud. O'zni yo'qotishga sabab bo'lgan qudrat ham aynan ana shu "jilva"da. Shu o'rinda muallif o'zining "Asli haqiqatdir majoz" hikmati sirini ham, ya'ni majoziy ishq vositasida ishq haqiqiyga yetishmoqlikni Yaratgan yashirinligining oshkorligiga bog'laydi. Butun borliq Uning zuhuridan tashkil topgan. Bu olamda Yaratganni topmoqlik mushkul ish. Zero, "(Ey Muhammad!) Sizdan ruh haqida so'raydilar. Aytin: "Ruh faqat Robbimning ishidandir. Sizlarga esa oz ilm berilgandir". (Isro, 85)[1] Ruhning haqiqatini faqat U biladi. Biroq tafakkur egalari Uning qudratini, buyukligini yaratgan yaratig'larida ko'ra oladilar. Chunonchi, nimaiki yaratilgan bo'lsa, "ilohiy nur" tajalliyotidan paydodir. Al-Muhaymin bo'lgan Zot yashirinligining oshkorligi ham mazkur Tajallining zuhuridan.

Najmiddin Komilov g'azalning umumiy mazmun-ma'nosini quyidagicha tavsiflaydi: "Alloh zotini hech kim ko'ra olgan emas, lekin uning sifatleri, nuri butun borliqda mavjud. Shu boiskim, bulbul gulga talpinadi, gulzor husnu jamoli uni maftun etadi, u o't ichida paydo bo'lgan samandarday, o'zini gulzor olovi ichiga otadi. Xuddi shu kabi parvona ham ayni shu ilohiy qudrat tufayli sham shu'lasiga talpinadi va olovga qo'shilib yonadi. Shu qudrat, shu kuch Vomiqni Uzroga, Majnunni Layliga, Farhodni Shiringa oshiq qilib qo'ygan. Chunki, Uzro, Layli, Shirin jamoli - har biri mazhar. Ya'ni tajalliyot nuri aks etgan nuqta, markaz. Vomiq, Majnun, Farhod bu nuqtalarda Ilohning nurini ko'rib, unga behud va beqaror bo'lib talpinadilar, shu mazharga yetishish bilan Allohning o'ziga oshiqliklarini isbotlaydilar, ya'ni sifatdan Zotga qarab boradilar. Lekin bunga poklanish va qanoat yo'li olib boradi, deydi Navoiy. Zero, qanoatning dalili parhez, sabr-u toqatdir. Bunda so'z o'yini ham bor, ya'ni arab yozuvida "qanoat", "qone", "anqo" so'zlarining o'zagi bir. Yundan tashqari, "qone" - to'yingan, rozi degan ma'nolarni anglatsa, "Anqo" - hech qachon ko'zga ko'rinmaydigan, ammo bor bo'lgan afsonaviy qush nomi. Ana shunday ramzlarni yaratgan ham Xudoning o'zi, deydi Navoiy".[5]

6. Zero, Uni topmoqlik mushkul ish, topmaslik esa juda oson ekanligini ta'kidlar ekan, Navoiy ilgari surgan konsepsiyasi negizi "Ko'zlar Uni idrok eta olmas, U ko'zlarni idrok etar. U latif va xabardor Zotdir". (An'om, 103-oyat)[1] oyati haqiqatiga borib tarqalishining o'zi birgina misraga bashariyat anglashi lozim bo'lgan "ilm"ni sig'ira olgan ijodkor dahosini ko'rsatadi. Chunonchi, ko'zga ko'rinmagan, ko'ra olmaganimiz yo'q degani emas. Aksincha, ko'zning ko'ra olmasligidan, nuqsonligidandir.

Xulosa va takliflar. Shak-shubhasiz, Navoiy Yaratgan "oshkorligining yashirinligi, yashirinligining oshkorligi" sirini anglamoq uchun inson degan yaratig'ni "Boyqushlikdan chiqib Yaqinlik Qofining Anqosi bo'lmoq kerak" (Jaloliddin Rumi ta'biri) degan chorlovga undaydi hamda "Iyyaka na'budu", ya'ni banda tarafidan Allohga berilgan ulkan "va'da"ni unutmaganlarga Al-Hakiym bo'lgan Zot hikmatlari mag'zini chaqa oladi degan ulkan g'oyani ilgari suradi. Maqta'da o'z taslimiyati bilan chinakam qullik mohiyatini go'zal usulda bayon etadi:

Navoiy qaysi til birla Sening hamding bayon qilsun,
Tikkan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.

ADABIYOTLAR

1. Shayx Abdulaziz Mansur. (2021). Tarjima va tafsir. - Toshkent: "Munir" nashriyoti. 18, 141, 167, 168, 290-b.

2. Ibrohim Nurulloh. (2018). Asmoul husna va yosin, taborak. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 12-b.
3. Jo'raqulov U. (2015). Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 52-b.
4. Komilov N. (1996). Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti. 57-b.
5. Komilov N. (2012). Ma'nolar olamiga safar: Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar. – Toshkent: Tamaddun nashriyoti. 19-20-b.
6. Nuriya Cheleyen. (2023) Har ayol Hojardir. Turk tilidan O'tkirbek Muhammad Sobir tarjimasi. – Toshkent: "Nasim Kutib" nashriyoti. 7-b.



UDK: 420=943.75:413.18(045)

Zamira SHUKUROVA

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

Qarshi DU dotsenti v/b M.Omonova taqrizi asosida

TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS INVOLVING THE NAMES OF BODY PARTS IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

Annotation

This article reveals the role of proverbs, sayings in phraseology and especially translation. A comparative analysis of bilingual phraseological units with names of body parts in Uzbek and English is carried out.

Key words: proverb, saying, idiom, wisdom, saying, parable, comparative analysis of phraseology.

ПЕРЕВОД ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК С УЧАСТИЕМ НАЗВАНИЙ ЧАСТЕЙ ТЕЛА В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье раскрывается роль пословицы, поговорки во фразеологии и в особенности перевода. Проведен сравнительный анализ двуязычных фразеологизмов с названиями частей тела на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: пословица, поговорка, идиома, мудрость, поговорка, притча, сравнительный анализ фразеологии.

O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA TANA A'ZOLARINING NOMLARI ISHTIROK ETGAN MAQOL VA HIKMATLARNING TARJIMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqol, matalning frazeologiyada tutgan o'рни va tarjima xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek va ingliz tilida tana a'zolarining nomlari ishtirok etgan frazeologizmlarni ikki tilda qiyosiy tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, matal, idiom, hikmat, naql, masal, qiyosiy tahlil frazeologiya.

Kirish. Adabiyotshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir xalq adabiyotni boshqa adabiyotlardan ajartib olib, alohida o'rganish mumkin emas. Maqol, matal va hikmatlarni tarjima qilishda tarjimon oldida turgan muammolardan biri shuki, u tarjima qilayotgan maqol tegishli bo'lgan xalqning urf-odati, madaniyati, tarixi bilan tanish bo'lishi kerak. Maqol, matal, hikmatli so'zlar va idiomatik ta'birlarni tarjima qilish qiyin ish, chunki ular har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday xususiyatlarni boshqa til vositalari bilan ifodalash oson emas albatta, maqol va matallar til xazinasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqol so'zining lug'aviy ma'nosi o'ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan muhlat qo'yiladigan, o'zgartirib bo'lmaydigan chuqur ma'noli gap demakdir.

Frazeologizmlarni tarjima qilish masalasi keyingi yillarda tarjima-nazariyasiga doir bir qancha asarlarda ancha mukammal ishlandi. Chunonchi, G.Salomov o'zining "Maqol va idiomalar tarjimasi" nomli kitobida hamda shu mavzuda yozilgan dissertatsiya ishida maqol va idiomalarga ta'rif bergan ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatgan, hamda o'zbekchaga o'g'irish prinsiplarini ishlab chiqqan.

Ta'riflarga yana e'tibor berar ekanmiz, xorijiy tilshunos Miderning ham fikrini o'rgandik. U quyidagi fikrlarni bildiradi: Maqollar asl haqiqatning qisqa shakli bo'lib, u xalq orasida keng tarqalgandir. U avlodlardan avlodga, qo'llardan qo'llarga o'tib keladigan, unutilmas, o'z ichiga milliy dunyoqarashni, donishmandlikni, ma'naviyatni qamrab oladigan qisqa, barcha uchun tanish bo'lgan gaplardir."

"Matal" so'zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma'nolarda qo'llanadi. U topishmoq, hikmatli so'z, ertak,

masal umuman hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma'nolarida ishlatiladi. U termin sifatida o'zbek folklorshunosligida paremiyamalarning bir turini ifodalash jihatdan differensiyalashib bormoqda. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lig'ati"da bu atama arab tilidan ilingani va ikki ma'nosi borligi ko'rsatiladi. Lug'atda berilishicha, matal "tugal ma'no ifodalamaydigan obrozi ibora, hikmatli so'z"dan iborat.

Maqol va uning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi va uning mataldan farqli jihatlarini ko'rsatishda A.Musoqulov, B.Sarimsoqov, T.Mirzaevlarning fikrlari diqqatga sazovordir." Maqol mustaqil folklor janr sifatida qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan matallardan keskin farqlab turadi."

Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib turganidek, ota bobolar so'zi sifatida avlodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Bu merosni xalq juda ehtiyot bilan ko'z qorachig'idek saqlaydi. Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalarning o'ziga xos kodeksidir. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Lekin shunga qaramay hamma maqollarda xalq hikmati yotadi. Maqol turmushda sinalganda ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir.

Maqollar biz uchun asrning sadosi uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tillarning funksiyasini o'rgatishda xalq qanday narsalarni nomini qanday voqea hodisalarni timsoli sifatida qabul qilganligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Dunyodagi juda ko'p xalqlar yaxshilik, yomonlik, yuvoshlik, saxiylik,

ayyorlik, vaxshiylik, qo'pollik timsoli sifatida qabul qilinganligini aniqlash zarurdir.

Masalan: yomonlik, zararkunadalik timsoli - ilon, chayon, vahshiylik timsoli-bo'ri, yuvoshlik timsoli musicha, qo'y, mehnatsevarlik timsoli - chumoli va asalari; kattalik timsoli-fil; ayyorlik timsoli-tulki; qo'pollik timsoli-ayiq; befahmlik va befarosatlik timsoli-eshak, cho'chqa; tinchlik timsoli-kabutar; go'zallik timsoli-tovus; xushxonlik timsoli - bulbuldir.

Hamma xalqlar ham farosatsizlik, ayyorlik va qo'pollik timsoli sifatida ma'lum biz hayvon va parrandani belgilar ekan, bunda shubhasiz, o'sha hayvon va parrandaning xulqiga, tashqi ko'rinishga va hatti - harakatlariga asoslanadilar. Juda ko'p xalqlar ayyorlik, mug'ombirlik timsoli sifatida tulkini oladilar. Xalq nazarida tulki boshqa jonivorlarga qaraganda ancha aqlli va o'ta ayyor hayvondir. Chunonchi u turli afsonalarda qarg'ani aldaydi, bo'rini o'sal qiladi, itni ko'zini shamg'alat qiladi. Ba'zi hayvonlarni muqaddas bilish ularni ilohiy lashtirish obyekt shu hayvon yoki parrandalarning nomlaridan iborat maqol idiomalarning xarakteri ta'sir qiladi.

Maqol va idiomalarning shakl xususiyatlari to'g'risida gapirganda qisqagina qilib qisqa deyishning o'zgina kifoya qilmaydi.

Axir har qanday qisqa jumla ba'zan chuqur mazmunli har qanday qisqa jumla ham maqol, matal yoki idioma bo'lmaydi - ku.

O'zbek va ingliz tilshunosligida maqol va hikmatlarning semantik uslubiy tuzilishiga doir qator ishlar mavjud. Shunday ekan tana a'zolarining nomlaridan tuzilgan maqol va matallar har bir tilning frazeologiya boyligida katta o'rin ishg'ol qiladi.

Obyekti tana a'zolarining nomlaridan iborat frazeologizmlarni o'rganish ularning ekvivalent va muqobil variantlarini aniqlash, ikki til materiallari asosida ko'chma ma'no anglatish doirasi va normalarini belgilash frazeologiya, leksiologiya va xususan tarjima nazariyasi uchun katta ahamiyatda molikdir.

“qo'l, oyoq” so'zlaridan tashqari bosh, jon, bel, qo'l, bo'yn, o'pka, til, bilak, qorn, ko'z so'zlari ham juda ko'p frazeologizmlar uchun asos bo'lib keladi.

Masalan o'zbek tilida quyidagi maqollar, matallarni uchratishimiz mumkin:

- Ayrilmagin elingdan,
- Quvvat ketar belingdan.
- Eling senga cho'zsa qo'l,
- Unga doim sodiq bo'l.
- Erning ishi - elning bo'ynida,
- Elning ishi - erning bo'ynida.
- Yurtim - ko'ksim,
- Elim - iligim.
- O'pkadan urgan yel yomon,
- Elidan ayrilgan er yomon.
- Bir qo'llab eksang,
- Ikki qo'llab o'rasan.
- Ishlikning peshonasi terlar,
- Ihsizning - bo'yni.
- Ishning ko'zini bil,
- Erning - tilini.
- Mard yigitning labi yog'lik,
- Dangasaning boshi qonlik.
- Mehnatsiz bilak - o'rinsiz tilak.
- Mol boqqanning barmog'idan moy tomar.
- Erinchoqning qo'li yetmas,
- Qo'li yetsa ham, ishi bitmas.
- Qorning to'ysa, kekirma,

- Bekor yurib, bo'kirma.
- Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.

Tana a'zolarining nomlaridan tuzilgan maqol va matallar har bir tilning frazeologiya boyligida katta o'rin ishg'ol qiladi.

Tana a'zolarining nomlari asosida tuzilgan maqol, matal va idiomalarni o'rganish, chet tilini egallash metodikasida ham muhimi o'rin tutadi. Chet tilidagi biron iborani olib, uni ona tilidagi muqobil variant bilan taqqoslash, ayniqsa, ularning obyektlarini bir-biriga qiyos qilish o'quvchilarda ona tili va chet tili iboralarining o'xshash, bir-biridan farq qiluvchi tomonlariga asoslangan muayyan assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga yordam beradi va natijada o'quvchilarning boshqa tildagi ko'chma ma'noli birikmalarning ma'nosini tezroq tushunib olishiga katta imkon yaratadi.

Masalan ingliz tilida quyidagi maqollar, matallarni uchratishimiz mumkin:

Masalan:

“The eyes are the mirror of the soul”

Ko'z ko'ngil darchasi

“Sleep with one eye open”

Xushyorni yov bosmas,

Yov bossa ham dov bosmas.

One eye for an eye and a tooth for a tooth.

O'chakishganda it qopmay qolmas.

Eat the bread of idleness

Bekorchinging beti yo'q

Qozon otsar eti yo'q

Bald heads are soon Shaven

Kalning nimasi bor - temiz tarog'i,

Ko'ring nimasi bor - eski tayog'i.

Adversity is a good discipline.

Bosh boshga tegsa, Aql boshqa kelar.

Absence Sharpens love, presence strengthens it.

Ko'z ko'zga tushsa, mehr dilga tushadi.

Absent is always in the wrong

O'zi yo'qning - ko'zi yo'q.

Ba'zan har ikki tilda obyekt, shakli va ma'nosi aynan to'g'ri keladigan, hatto ekvivalent bo'ladigan iboralarining etimologiyasi biri biridan jiddiy farq qiladi. Frazeologiya tarkibida o'rganilayotgan maqol, matal, idioma va hikmatli so'zlar alohida o'rganilishi lozim bo'lgan mavzulardir. Maqol so'zning ko'rki, nutqning o'tkir quroli, xalqning donishmandligidir.

Maqol xalqning pand-nasixati, ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aks-sadosi, til tabiatining hikmatli merosidir. Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy - hikmatona mazmunga ega. Maqol xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi ko'p asrlik tajribalari majmuidir. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funktsiya jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Maqolda Vatanni sevish, mehnat qilib yashash g'oyalari ilgari suriladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning talaygina qismi faqat tarkibidagi ayrim so'zlarning ishlatilishi bilan farqlanadi.

Qisqasi maqol turmushda sinalgan, ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Uning boshqa frazeologik birliklardan farqi shuki, boshqa frazeologik birlikka gap tarkibiga kirib, uning bir bo'lagini tashkil etsa, maqolning o'zi butun gapni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Maqollar frazeologik birikmalarning alohida bir turilaridirki, bular “maqol frazeologizmalaridir”. Maqol - narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq iboralaridir. Matal so'zlovchining o'z nutqi

mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal aytilmoqchi bo'lgan fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal "u ahmoq odam" deyish o'rniga "uning bir qaynovi past" deydi, "ular bir biriga juda mos" deyish o'rniga – "ular bir olmaning ikki pallasi" deb aytadi. Maqol bilan matal o'rtasida umumiylik ko'zga tashlanadi.

Bu umumiylik shundan iboratki har ikkala kategoriya ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishda ishlatiladi. Lekin shu bilan birga tugal fikrni o'zida ifodalagan maqollardan matallar jiddiy farq qiladi.

Idioma shaklan bo'laklarga ajralmaydigan maxrajli birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri va konkret ma'nosi bilan talqin qilinmaydigan ko'chma ma'no anglatuvchi so'z birkmasidir. Bir tildagi idomatik iboralarni boshqa tilga birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nosini tarjima qilsa ko'pincha tushunarli bo'lmaganiday xato aytishning o'zida ham ularni to'g'ri ma'noda talqin qilish, ya'ni idomatik birikmaning erkin so'z birikmasi deb talqin qilish tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi.

Idiomatik ibora maqol bilan qiyos qilinsa uning o'ziga xos xususiyati ochiqroq ko'rinadi.

Maqol obrazli mazmunga ega bo'lgan gapdir. Uni sintaktik bo'laklarga ajratish mumkin. Biroq idioma barqaror leksik butunlik bo'lib, uni na semantik bo'laklarga ajratish mumkin. Tig' yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas maqolni sintaktik bo'lib uni tahlil qilaylik. Bunda ega va kesim mavjud bo'lgan ikkita gap bor.

Birinchi gap: tig'yarasi tuzalar

–til yarasi –ega, tuzalar- kesim.

Ikkinchi gap: til yarasi tuzalmas,

til yarasi-ega, tuzalmas- kesim.

Ammo tarvuzi qo'ltigidan tushdi-idiomasini bunday tahlil qilib bo'lmaydi. Yuzaki qaraganda: tarvuzi – ega, tushdi- kesim, qo'ltigidan-to'ldiruvchi, lekin bunday tahlil bema'nilikka olib keladi, chunki avvalo grammatik tahlil qilish uchun berilgan savollarning o'zi o'rinsiz bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda idioma bo'laklarga ajralmaydigan yaxlit bir bo'lakdir. Idioma faqat ko'chma ma'noda ishlatiladigan yaxlit birikmadir.

Maqol bilan idioma ma'nosi shakl tomonidan bir biridan jiddiy farq qilsa ham ammo maqol bilan matal va idioma o'rtasida o'xshashliklar katta. Ko'pincha ularni bir biridan ajratish qiyin.

Xulosa va takliflar. Maqol bilan idioma ma'nosi shakl tomonidan bir biridan jiddiy farq qilsa ham ammo maqol bilan matal va idioma o'rtasida o'xshashliklar katta. Ko'pincha ularni bir biridan ajratish qiyin. Maqol va hikmatlarni o'zga tillarga to'g'ri keladigan muqobilini topa bilish, ularni tarjima qilayotganda Shakl va mazmun birligiga alohida ahamiyat berish. Tarjima jarayonida maqollarning milliyligini saqlab qolish va hokozalar tilshunoslikning oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Qisqasi maqol turmushda sinalgan, ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Uning boshqa frazeologik birliklardan farqi shuki, boshqa frazeologik birlikka gap tarkibiga kirib, uning bir bo'lagini tashkil etsa, maqolning o'zi butun gapni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G.Salomov .Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. Toshkent 1961 y.
2. Shomaqsudov SH., Shorahmedov SH. Nega bunday deymiz. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1988..
3. Hotamov N., Sarimsoqov B.. Adabiyotshunoslik terminlari ruscha-o'zbekcha lug'ati. T.: O'qituvchi, 1983 yil.
4. Toshpo'latov Ziyodulla. Aforizm adabiy janr sifatida. / O'zbek tili va adabiyoti. T.: 2004, 2-son. .
5. SH.Shomaqsudov va SH.Shorahmedov. Hikmatnoma. O'zbek ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent. 1990 yil. .
6. Vamberi G. Ocherki Sredney Azii. Moskva., 1968.
7. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1987. 1-tom.
8. Rahmatullaev "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.1992
9. Berdiyarov N, Rasulov R, Yo'ldoshev B, "O'zbek frazeologiyasidan materiallar".
10. Suyarova N.YU. Fundamentals of conceptual study of metaphorical meaning // International Journal for Advanced Research in Science and Technology // Research (IJARST), Vol-10, Issue -05 May 2020. – Page. 51-58. ISSN:2457-0362.
11. Atamurodova F.T. Utopian Views in different eras and its evolution. International Journal of Formal education.VOLUME 2, (12) 2023., p.100-104



Gulrux ELMURADOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi
Email address: egulruh@yahoo.com

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n I.Jo'rayeva taqrizi asosida

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF DISCOURSE AND DISCOURSE ANALYSIS OF TOURISM TEXTS

Annotation

The interpretation of the concept of discourse in linguistics and the analysis of tourism texts through discourse are provided in this article. Also, in the article, linguistic views of scholars and researchers on the concept of discourse, diversity of opinions, specific aspects and types of discourse, as well as the analysis of tourism texts according to discourse analysis are scientifically and practically proved.

Key words: tourism, discourse, tourist, conversation, structure, communicative, linguocultural, cognitive.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ДИСКУРС И ДИСКУРСНЫЙ АНАЛИЗ ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В статье дается интерпретация понятия дискурса в лингвистике и анализ туристических текстов через дискурс. Также в статье научно и практически обосновываются лингвистические взгляды ученых и исследователей на понятие дискурса, многообразие мнений, специфические аспекты и виды дискурса, а также анализ туристических текстов по дискурсивному анализу.

Ключевые слова: туризм, дискурс, турист, беседа, структура, коммуникативная, лингвокультурная, когнитивная.

DISKURS TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI VA TURIZM MATNLARINING DISKURS TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikda diskurs tushunchasi talqini va bu orqali turizm matnlarining tahlil etilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, maqolada tilshunos olimlar va tadqiqotchilarning diskurs tushunchasi yuzasidan o'rgangan lingvistik qarashlari, fikrlar xilma-xilligi, diskursning o'ziga xos jihatlari, turlari, hamda, turizm matnlarining diskurs tahliliga muvofiq tahlil etilishi keltirib, ilmiy va amaliy asoslangan.

Kalit so'zlar: turizm, diskurs, sayyoh, suhbat, struktur, kommunikativ, lingvokulturologik, kognitiv.

Introduction. Tourism encompasses the movement of people from their place of residence to other regions or countries for financial, social, and cultural reasons, whether for personal, business, or professional purposes. The individuals targeted by tourism activities are referred to as visitors, who can include tourists, excursionists, residents, or non-residents. The tourism industry is a significant contributor to global economic growth, generating revenue from the goods and services desired by travelers. Many countries rely heavily on tourism for their economic well-being, making it an integral part of modern society.

The term "discourse" originates from the Latin word "discurro" meaning "flow of speech" or "conversation". It is a central concept in current linguistics, used across various research categories. Different approaches to defining discourse have led to varied interpretations. However, at least two methods are commonly used in defining discourse.

Literature review. Given the importance of tourism, discourse analysis of texts in this field is crucial. Discourse analysis has a rich history in both domestic and foreign linguistics, with scholars such as E. Benveniste, T. A. van Dijk, M. Peshyo, R. Roben, P. Serio, M. M. Bakhtin, N. D. Arutyunova, E. S. Kubryakova, A. P. Chudinov, and V. I. Karasik extensively addressing the topic. Discourse is characterized as a specific communication experience that is recorded in written texts and oral speech and occurs in a specific cognitive space [2]; it can also be considered as a non-discursive text [1, 9]. A more comprehensive classification of discourse analysis includes structural, communicative, and

linguocultural approaches. The structural method places a strong emphasis on language phenomena while overlooking the "human factor" and extra linguistic aspects that influence text generation. However, recent developments in textual analysis have begun to incorporate speaker characteristics and communication situations, leading to the gradual precedence of the communicative approach over the structural one. The communicative approach integrates findings from various fields such as psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, rhetoric, and literary studies. In this approach, discourse is defined as "the process of live oral communication that is fundamentally different from canonical written speech". This definition highlights the dynamic nature of discourse and emphasizes the importance of considering context, interaction, and the social and cognitive factors involved in communication [4]. From both a linguistic and content standpoint, the term "canonical" indeed reflects connotations of being a model, recognized, generally accepted, or firmly established. When applied to discourse, it suggests a form of speech or text that adheres to established norms or conventions, contrasting with the dynamic nature of live oral communication. T. A. van Dijk offers a definition of discourse that emphasizes its complexity as a communicative process. This definition acknowledges the presence of extralinguistic variables beyond the text itself, which are essential for understanding it. In other words, discourse is not just about the linguistic elements within the text but also about the broader context and factors that influence its production and interpretation.

Furthermore, discourse is viewed as a multifaceted component of mutual socio-cultural relations. It encompasses specific features, interests, goals, and methods that shape communication within a given social or cultural context. This perspective underscores the intricate interplay between language, society, and culture in shaping discourse [2]. At the same time, in modern linguistics, the terms “discourse” and “text” are frequently used interchangeably. In such circumstances, the term “text” is simply replaced with “discourse”. In the pragmatic interpretation of the phrase “discourse” there is an opposition “discourse – text” which is analogous to the opposition “discourse – sentence”. Compared ideas define the same entity while identifying distinct elements of it. The linguistic, structural aspect of “text” contrasts with the pragmatic aspect of “discourse”. Some definitions focus on the social and cultural aspects of “communication”. Thus, N. D. Arutyunova defines speech as a cohesive text in the context of extralinguistic (pragmatic, socio-cultural, psychological, etc.) variables[1]. P. Serio, representing the French school of discursive analysis, emphasizes the multifaceted nature of speech and its various interpretations. Firstly, Serio views discourse as a specific assertion, akin to Saussure's concept of “speech”. Secondly, discourse is seen as a larger unit compared to a phrase, encompassing statements in a broader sense. Thirdly, in a pragmatic context, discourse involves the influence of speech on the addressee and its contribution to the expressive situation. This perspective highlights the role of discourse in shaping communication dynamics and its impact on the interaction between speakers and listeners. Moreover, within the framework of these definitions, discourse is associated with discussion, which is considered a primary type of speech [9]. N. K. Ryabtseva shares a similar perspective, examining language through the framework of speech act theory and communicative style, which considers the use of illocutionary force and communicative goals. According to Ryabtseva, the message, speech act, and axiological sentence are defined based on the speaker's communicative style and objectives. The message encompasses instructive and descriptive elements and involves a speech act. In contrast, the axiological assertion is evaluative in nature. Furthermore, Ryabtseva emphasizes that the addressee's responding speech act initiates a chain reaction of speech actions that collectively form a discourse. This approach underscores the dynamic and interactive nature of communication, where speech acts and their responses contribute to the construction of discourse [8].

Research Methodology. The method described considers advertising discourse to encompass various components, including messages, axiological claims, and speech acts. From a sociolinguistic perspective, there are two main styles of conversation: person-oriented and status-oriented. Person-oriented discourse is evident in both everyday communication and existential contexts such as artistic, philosophical, and mythological discussions. This style of discourse focuses on personal connections, emotions, and individual experiences.

On the other hand, status-oriented discourse can be institutional or non-institutional and is often used when communicating with strangers or in situations where there is a social or hierarchical distance between speakers. Institutional discourses encompass mass information, political, pedagogical, legal, and advertising contexts, where communication is influenced by social roles, power dynamics, and institutional norms [4].

The method outlined acknowledges that advertising discourse incorporates multiple elements, including messages, axiological claims, and speech acts. From a sociolinguistic perspective, two primary styles of conversation exist: person-oriented and status-oriented. Person-oriented discourse is evident in both everyday interactions and existential contexts, such as artistic, philosophical, and mythological discussions. This style prioritizes personal connections, emotions, and individual experiences. Karasik's perspective on institutional speech highlights the importance of two key elements: the goals of communication and the participants involved [4]. In the context of tourist speech, the primary objective is often to influence the thoughts, intentions, and attitudes of the audience, ultimately eliciting specific reactions or behaviors. By carefully crafting narratives, descriptions, and promotional messages, tourism advertisers aim to shape the perceptions and desires of potential travelers, enticing them to engage with the destination or tourism program being promoted. This manipulation of audience perceptions and emotions is central to the effectiveness of tourist speech in achieving its communicative goals.

Analysis and results. In contrast, status-oriented discourse can be either institutional or non-institutional and is often employed when interacting with strangers or in situations where there's a social or hierarchical gap between speakers. Institutional discourses span various domains like mass information, politics, education, law, and advertising, where communication is shaped by social roles, power dynamics, and institutional conventions.



Lose yourself in the streets of Old Town in Bukhara



Explore the dazzling tombs of Samarkand's Shakh-i Zinda

In the discourse of *Lose yourself in the streets of Old Town in Bukhara*, “Lose yourself in the streets of Old Town in Bukhara” evokes the charm and ambiance of one of Uzbekistan's most historic cities. Bukhara's Old Town is a

UNESCO World Heritage site, known for its well-preserved architecture, bustling bazaars, and winding streets that transport visitors back in time. Roaming through its narrow alleys, adorned with traditional buildings, mosques, and

